

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM  
VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI**

«Himoyaga ruxsat etilsin»

Dekan \_\_\_\_ f.f.d. B.Abdushukurov

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018-yil

5111200-O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr yo‘nalishi 4-kurs 401-guruh talabasi  
**Aliboyeva Nigora Abdullayevnaning “Hol”, “Aniqlovchi”, “To‘ldiruvchi”**  
**mavzularini o‘tishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish**  
**(5-sinf ona tili darsligi asosida) mavzusida**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar:

\_\_\_\_\_ S.Muhamedova,

“Axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar” kafedrasini mudiri,  
fil.f.d.

Taqrizchilar:

\_\_\_\_\_ Y.Eshmatova,

“Axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar” kafedrasini o‘qituvchisi.

\_\_\_\_\_ D.Eraliyeva,

Sirojiddinov nomidagi akademik litsey o‘qituvchisi.

***“Himoyaga tavsiya etildi”***

**Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ fil.f.d. S.Muhamedova**

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018-yil

**Toshkent-2018**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.</b> BMIning umumiy tavsifi .....	3
<b>I bob. Pedagogik texnologiyalar: rivojlanish tarixi, tasnifi</b> .....	6
1.1. Pedagogik texnologiyalar tarixi.....	6
1.2. Pedagogik texnologiyalar tasnifi.....	14
<b>II bob. “Hol”, “Aniqlovchi”, “To‘ldiruvchi” mavzularini o‘tishda qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalar</b> .....	21
2.1. “Hol” mavzusini o‘tishda qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalar.....	21
2.2. “Aniqlovchi” mavzusini o‘tishda qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalar.....	46
2.3. “To‘ldiruvchi” mavzusini o‘tishda qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalar.....	59
<b>XULOSA</b> .....	72
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati</b> .....	74

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimizda glaoballashuv jarayonida ta'lim-tarbiya jarayonida jiddiy islohotlar, tub burilishlar ro'y bermoqda.

Zero, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: «Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli uchun amalga oshiralayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi, taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassislar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz»<sup>1</sup>.

2017-yil 22-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev birinchi marta mamlakatimiz parlamenti Oliy Majlisga Murojaatnoma taqdim etdi. Murojaatnoma 2017-yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O'zbekiston Respublikasini 2018-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan. Murojaatnomada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Biz ulug' bobolarimizning munosib davomchilari bo'ladigan yetuk insonlarni tarbiyalash masalasiga, afsuski, yetarlicha ahamiyat bermadik. Holbuki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q", deb ta'kidladi. Darhaqiqat, yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga barchamiz mas'ulmiz.

Maktabda ona tili o'qitishdan asosiy maqsad og'zaki va yozma nutq yuzasidan o'quvchilarda mustahkam bilim hosil qilish, ishlab chiqarish, hayotning hamma sohalarida faol ijodiy faoliyat ko'rsata oladigan savodli va madaniyatli kishilarni tarbiyalab yetishtirishdir. Umumiy ta'lim maktablarining asosiy

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: O'zbekiston,1997. -B. 5.

vazifalari yosh avlodga fan asoslaridan chuqur va mustahkam bilim berish, ularni amalda qo'llash malakalarini yaratishdir. Bu vazifani amalga oshirishda savod o'rgatish, ona tilini o'rgatish jarayoni mas'uliyatli davr hisoblanadi.

Bugungi Davlat ta'lim standarti va ta'lim tizimi o'qituvchilar oldiga o'ta mas'uliyatli vazifalar yuklamoqda. O'qituvchi har bir o'tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazishi, darsning har bir daqiqasidan unumli foydalanishi zarur. Mashg'ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo'lgan bilimlar hajmini, o'zida hosil qiladigan ko'nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o'z navbatida o'qituvchidan o'z darslarida ajdodlar merosidan va zamonaviy usullardan foydalanishni taqozo qiladi.

Gap bo'laklarini innovatsion texnologiyalar asosida o'rganish mavzusi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

BMI mavzusining dolzarbligi yuqoridagilar bilan belgilanadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Gap bo'laklarini o'qitish yuzasidan ko'pgina metodik adabiyotlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratilgan.

Respublikamizda pedagog-metodist olimlar tomonidan pedagogik texnologiyalarga oid tadqiqotlar olib borilgan. J.G'.Yo'ldoshev<sup>2</sup>, S.A.Usmonov, N.S.Sayidahmedov, R.H.Jo'rayev, Q.Y.Yo'ldoshev, B.To'xliyev kabi ta'lim-tarbiya jarayonlari fidoiylarining ilmiy izlanishlari shular jumlasidandir.<sup>3</sup> Lekin shu mavzuni zamonaviy usul, ya'ni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish borasida shu kungacha ilmiy tadqiqot ishi yozilmagan.

### **Tadqiqotning maqsadi:**

Ishdagi asosiy maqsad 5-sinf ona tili darsida o'tiladigan "Gap bo'laklari" mavzusini innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida o'qitish orqali

---

<sup>2</sup> Yo'ldoshev J.G', Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – B. 121.

<sup>3</sup> To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. -Toshkent, O'qituvchi, 2006. – B. 74.

o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash; gap bo‘laklari yuzasidan kengroq bilimga ega bo‘lishini ta’minlash.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- gap bo‘laklarining o‘qitilish holatini o‘rganish;
- o‘quv qo‘llanmalari va darsliklarda gap bo‘laklari mavzusining yoritilishi bilan tanishish va tahlil qilish;
- 5-sinf ona tili darsida gap bo‘laklarini o‘qitishning samarali yo‘llari yuzasidan metodologik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot ob‘yekt:** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfida ona tili fanini o‘qitish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti:** 5-sinf ona tili darsida gap bo‘laklarini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishning metod va usullarini ishlab chiqish.

Ona tili o‘qitishdan asosiy maqsad o‘quvchilarda ona tilida fikrini to‘g‘ri, aniq, ravshan va go‘zal ifodalay olish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat ekan, 5-sinf ona tili darslarida so‘zlarni to‘g‘ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda tuza olish lisoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismidir. Shuning uchun har bir so‘z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to‘g‘ri, o‘rinli ishlata olishni o‘rgatish, o‘z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik, mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish ona tili darslarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalaridan 5-sinfidagi sintaksisni o‘qitishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot ishining metodi** – mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, tahlil qilish, kuzatish, suhbat, yozma-og‘zaki so‘rovlar.

**Tadqiqotning metodologik asoslari:** Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalari, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining ta’lim sohasiga oid me’yoriy hujjatlari.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Yuqorida ko‘rib o‘tildiki, sintaksis an’anaviy tadqiq usullarida ham, zamonaviy usullarda ham o‘zbek tilshunosligida

yetarlicha o'rganilgan. Malakaviy ishning ilmiy yangiligini sintaksisning o'rganilish tarixini yoritish, 5- sinf ona tili darslarida "Gap bo'laklari" mavzusini o'qitish bilan bog'liq muammoli holatlarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini yoritish, uzluksiz ta'lim bo'g'inlarida mavzuni o'qitishga doir uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish tashkil qiladi.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Ishning umumiy hajmi 77 bet bo'lib, u ishning umumiy tavsifi, kirish, 2 bob, xulosa, ilova va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I bob. Pedagogik texnologiyalar: rivojlanish tarixi, tasnifi**

### **1.1. Pedagogik texnologiyalar tarixi**

O'tgan yillarimizga nazar tashlab, ularni sarhisob qilsak, mustaqilligimiz sharofatini yanada chuqurroq anglaymiz. Biz ta'limda butunlay yangilanish, yangi jarayonga tom ma'noda o'tish va unga moslashish davrini boshimizdan kechirmoqdamiz. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bizga eski usullardan voz kechib ta'limning har bir qirrasigacha qayta qurish imkonini bergan bo'lsa, «2004-2009-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» esa qo'lga kiritilgan imkoniyatlarni: takomillashgan davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, davlat talablari, yangi o'quv darsliklarini har tomonlama zamon talablariga mos jihozlangan maktablarda, zamonaviy o'quv xonalarida amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini keng ochib berdi.

Yangilangan ta'limda o'quvchining yuragidagi cho'g'ni alanga oldirish, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimdan-bilimga yetaklab olib chiqish uchun zamonaviy darslar zarurdir.

Bugungi kungacha pedagogik adabiyotlarda, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda «yangi pedagogik texnologiya», «ilg'or pedagogik texnologiya», «zamonaviy ta'lim texnologiyasi» ga oid tushunchalari hali ham bir qolipga tushirilmagan, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud.

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida uchinchi ming yillikda davlatning ta'lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, o'quvchi va talaba yoshlarda

hurfiylik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimi shakllantiriladi.

Ma'lumotlilik asosida yotuvchi bosh g'oya ham tabiat va inson uzviyligini anglab yetadigan avtoritar va soxta tafakkur yuritish usulidan voz kechgan, sabr-bardoshli, qanoatli, o'zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirishni ko'zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalaning yechimi qaysidir darajada ta'limni texnologiyalashtirish bilan bog'liqdir.

Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan - "texnos" (techne) - san'at, mahorat, hunar va "logos" (logos) - fan so'zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma'nosini anglatadi. Biroq, bu ifoda ham, zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologik jarayon, har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda, operatsiyalarning muayyan ketma-ketlikda bajarilishni ko'zda tutadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon - bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'ektlari (xomashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi mashina)ning faoliyatidir. Ana shu ta'rifni tadqiqot mavzusiga o'giradigan bo'lsak, ya'ni: Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning ta'lim-tarbiya vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayonidir<sup>4</sup>.

Yuqorida keltirilgan ta'rifdan ko'rinib turibdiki, pedagogik texnologiya tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham, bu tushunchaga berilgan ta'riflar pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko'pdir. Pedagogik adabiyotlarda "texnologiya" atamasining xilma-xil ko'rinishlarini uchratish mumkin: "o'qitish texnologiyasi", "ta'limli

---

<sup>4</sup> Ashurova A.Yuldashev Z. Ta'lim tizimida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llash – zamon talabi. //Xalq ta'limi jurnali, - Toshkent, 2006. № 10.



texnologiya", "ma'lumot texnologiyasi", "o'quv jarayoni texnologiyasi" va hokazo. O'qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyaga yaqin tushuncha bo'lsa-da, aynan o'xshash ma'noni anglatmaydi, chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materialini o'zlashtirish yo'lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko'proq xususiy metodika bilan bir qatorda turadi.

Pedagogik texnologiya esa ma'lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalaydi va "o'qituvchi - pedagogik jarayon o'quvchi (talaba)" funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi.

Alohida qayd etib o'tish joizki, ayni vaqtda ta'lim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy-g'oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona fikr mavjud emas. Pedagogik adabiyotlarda 300 dan ortiq ta'riflar berilgan<sup>5</sup>.

Yuqorida qayd etilganidek, pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsa-da, aynan "pedagogik texnologiya" tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani "amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi" deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. N.F.Talzina esa pedagogik texnologiyaning "fan va amaliyot oralig'ida muayyan tamoyillarni olg'a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalarni hal etishga yo'naltirilgan mustaqil fan" bo'lishi lozimligini qayd etadi va hokazo.

Hozirgi ta'lim-tarbiya sohasida keng rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan iborat. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda asosan inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan avlodga uzatish amalga oshiriladi.

---

<sup>5</sup> Yo'ldoshev J.G'., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – B. 97.

Pedagogik texnologiyaning har turli ta'riflari mavjud bo'lib, har bir ta'rif ma'lum nuqtai nazardan yondashishni ifodalaydi. Ayrim asosiy ta'riflar va ularning sharhlarini ko'rib chiqamiz.

Pedagogik texnologiya-barkamol insonni shakllantirish faoliyati.

Texnologiya – biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi (Izohli lug'at).

Texnologiya – ishlov berish, ahvolni o'zgartirish san'ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig'indisi (V.M.Shepel).

Pedagogik texnologiya – o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi: u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat (B.T.Lixachev).

Pedagogik texnologiya-o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir (V.B.Bespalko)<sup>6</sup>.

Pedagogik texnologiya-ta'limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti (I.P.Volkov)

Pedagogik texnologiya-o'quv jarayonining o'quvchilar va o'qituvchi uchun so'zsiz qulay sharoitlar ta'minlashni loyihalash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha hamma detallari o'ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli (V.M.Monaxov).

Pedagogik texnologiya-texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi (YUNESKO)<sup>7</sup>.

Pedagogik texnologiya-bu o'qitishga o'ziga xos yangicha (innovatsion) yondoshuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining

---

<sup>6</sup> Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: Изд-во Института профессионального образования Министерства образования России, 1995.

<sup>7</sup> Yo'ldoshev J.G'., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – B. 116

ifodalashi, ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayoning muayyan standartlashuvi hisoblanadi (B.L.Farberman).

O'qituvchining o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoit va izchillikda ta'sir ko'rsatish hamda mazkur faoliyatning mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayoni (N.Saidahmedov).

Yuqorida keltirilgan ayrim ta'riflarning o'zaro har xilligidan ko'rinadiki, pedagogik texnologiya tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtai nazardan yondashish mumkin. Pedagogik texnologiya-axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o'rgatish jarayonidan iborat. Pedagogik texnologiya-ta'lim metodlari, usullari, yo'llari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi: u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmuidir.

Pedagogik texnologiya-ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o'zlashtirish jarayonidan iborat.

Demak, pedagogik texnologiya-insonga (ta'lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iborat.

Pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir. Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi. Bu faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Pedagogika fani tarixidan ko'rinib turibdiki o'qitish va kadrlar tayyorlashning yanada mukammal metodlarini va usullarini izlash doimiy davom etib kelgan.

O'qitish - bu jamiyat taraqqiyoti uchun samarali pedagogning faoliyati yakunlanishi bilan darhol ko'rinmasa ham har qanday boshqa faoliyat kabi ishlab chiqarish faoliyatidir.

Jamiyat tarixida iqtisodiy davrlar faqatgina nimalar ishlab chiqarilishi, kim tomonidan qancha ishlab chiqarilishi, mehnatning qaysi vositalari bilan ishlab chiqarilishiga qarab farq qilmaydi.

Ana shu nuqtai nazardan biz ijtimoiy tarixda mavjud bo'lgan "pedagogik rivojlanish davr" larni ko'rib chiqamiz.

I. Individual pedagog, qo'l bilan ishlaydigan pedagogning pedagogik faoliyati davri (qadimgi davrlardan boshlab XVII asrgacha);

II. Yozuv kitobi davri (XVII asrdan hozirgi davrgacha);

III. Audiovizual vositalar davri (XX asrning 50 yillari);

IV. O'qitishni boshqarishni avtomatlashtirish oddiy vositalari davri (XX asrning 70 yillari);

V. Zamonaviy hisoblash mashinalari asosida ta'limni boshqarishni avtomatlashtirishda adaptiv vositalar davri (XX asr oxiri komp'yuterda o'qitish).

Dastlab XX asrning 20yillarida "Pedagogik texnologiya" termini birinchi bor pedagogika bo'yicha asrlarda tilga olingan. Shu vaqtning o'zida yana bir boshqa – "pedagogik texnika" termini ham tarqaldi. U pedagogik entsiklopediyada 30 yillarda o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan.

Bu tushuncha 1940-yillardan 50-yillar o'rtasigacha "ta'lim texnologiyasi" deb qo'llanilib, o'quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni ifoda qilgan.

60- yillar o'rtalarida bu tushunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferensiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda (AQSH, Angliya, Yaponiya, Frantsiya, Italiya, Vengriya) uni talqin qilishning ikki yo'nalishi belgilandi. Birinchi yo'nalish tarafdorlari texnik vositalar va dasturlashtirilgan o'qitish vositalarini qo'llash zarurligini ta'kidladilar. Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari esa o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish va pedagogik g'oyalarni texnikaning keskin rivojlanishidan ortda qolishini yo'qotishni muhim deb

hisobladilar. Shunday qilib 1-yoʻnalish “oʻqitishda texnik vositalar” sifatida belgilandi, 2-yoʻnalish “oʻqitish texnologiyasi” yoki “oʻquv jarayoni texnologiyasi” sifatida belgilandi.

70-yillarning boshlarida turli xildagi uskunalari va oʻquv vositalarini modernizatsiyalashtirish zarurligi anglab yetildi. Bularsiz oʻqitishning sifatli va samaradorligiga erishib boʻlmas edi. Keyinchalik bu muammo bilan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va markazlar shugʻullana boshladi.

AQSHda 1971-yil – “Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar boʻyicha AQSH Assotsiatsiyasi” tuzildi. Hozirgi kunda mamlakat boʻylab va Kanadada bu kengashning 50 ta filiallari ish olib bormoqda. AQSHda 1961-yilda “Pedagogik texnologiya” jurnali (Educational Technology), 1971-yilda esa – “Audiovizual oʻqitish” jurnali nashr etila boshlandi.

Angliyada 1967-yil – Pedagogik texnologiya boʻyicha Milliy kengash, 1964-yildan boshlab “Pedagogik texnologiya va oʻqitishni dasturlashtirish” jurnalini, 1971-yilda “Pedagogik texnologiya” jurnalini nashr eta boshladi<sup>8</sup>.

Yaponiyada - Pedagogik texnologiyalar muammolari bilan 4 ta ilmiy tashkilotlar shugʻullanadi. 1967-yilda “Pedagogik texnologiyalar boʻyicha Milliy kengash” tashkil etildi, uning filiallari 22 ta davlat universitetlarida joylashtirilgan. 1965-yildan boshlab Yapon tilida har uch oyda “Pedagogik texnologiya” jurnali va ingliz tilida yiliga ikki marta “Pedagogik texnologiyalar sohasida tadqiqotlar” jurnali nashr etildi. Yaqinda “Pedagogik texnologiyalar boʻyicha umumiyapon Markaziy kengashi” tashkil etildi, u muammolar boʻyicha xalqaro aloqalar oʻrnatish bilan ham shugʻullanadi. Italiyada – 1971-yili pedagogik texnologiyalar boʻyicha Milliy markaz tashkil etildi va “Pedagogik texnologiyalar” jurnali nashr etiladi.

Vengriyada – 1973-yili oʻqitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi.

Oʻqitish texnologiyasi boʻyicha Xalqaro seminarda (Budapesht, 1977) olim S.G.Shapovalenko oʻqitish jarayonining uchta texnologik prinsiplarini koʻrsatdi<sup>9</sup>:

---

<sup>8</sup> Xoʻjayev N.X., Xodiyev B.Y., Baubekova G.D., Tilabova N.T. Yangi PT. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Fan, 2002.

1. Bilim va texnikani mukammal egallash.
2. Audiovizual materiallari fondi bilan tanishish.
3. Ulardan samarali foydalanish metodikasini bilish, shu jumladan ijodiy yondashishi rivojlanishi ham.

Vengriya olimi L.Salai “o‘qitish texnologiyasi” tushunchasiga rejalashtirish, maqsadlarni tahlil qilish, o‘quv tarbiyaviy ishlar jarayonini ilmiy tashkil etish, samaradorligini oshirish maqsadida eng muhim vosita va materiallarni tanlashni kiritib o‘qitish jarayonini tashkil etuvchilarni doirasini ancha kengaytirdi.

XX asrning 80-yillarida zamonaviy pedagogik jarayonni, pedagogik texnologiyaning mohiyatini yanada chuqurroq anglab yetishga urinishlar davom etdi.

Rossiya XX asrning 90- yillarida pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Markaz tashkil etildi, “Maktab texnologiyasi”, “Ta’limda innovatsiyalar” jurnallari nashr etiladi.

O‘zbekistonda 1997-yili kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingandan boshlab ta’lim tizimida, pedagogik nashrlarda pedagogik texnologiyalar muammolari dolzarb tadqiqotchilik ob’ektlari sifatida ko‘tarila boshlandi.

1999-yilda Respublika ta’lim Markazi qoshida pedagogik texnologiyalar bo‘yicha Markaz tashkil etildi. “Ta’lim texnologiyalari”, “Ta’lim muammolari” kabi jurnallar nashr etila boshlandi, pedagogik texnologiyalar muammolari bo‘yicha maqolalar “Xalq ta’limi”, “Pedagogik ta’lim”, “Ta’lim va tarbiya” jurnallarida, “Ma’rifat”, “O‘qituvchilar gazetasi” va boshqa ilmiy-pedagogik nashrlarda bosilib chiqarilmoqda. 1994-yili pedagogik texnologiyalar muammolari bo‘yicha

1-Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi o‘tkazildi, ma’ruzalar va hisobotlar materiallari maxsus to‘plamda chop etildi.

---

<sup>9</sup> Морева. Основы педагогического мастерства. Теоритические аспекты. – Москва: Влосос – Пресс, 2006. –С. 347

Pedagog olimlar U.Nishonaliyev, N.S.Saidahmedov, N.N.Azizxodjayeva<sup>10</sup>, Ziyomammedov, O'.Tolipov, B.L.Faberman va boshqalar Respublikada pedagogik texnologiyalar muammolari bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib bormoqdalar. 2000-yilda, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti qoshida pedagogika fanlari doktori, professor N.N.Azizxodjayeva rahbarligi ostida innovatsion texnologiyalar Markazi tashkil etildi, bu markaz zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalar muammolari bo'yicha pedagogik kadrlar malakasini oshirish bilan shug'ullanadi.

### **1.2. Pedagogik texnologiyalar tasnifi**

Pedagogik texnologiyalarni quyidagi belgilariga ko'ra tasnif qilinadi:

1. Gumanistik aksiologiya – aksiologiyada insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi. Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o'zining yangilik yaratish jarayoniga bag'ishida

qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar majmuasini anglatadi.

2. Akmeologik yondashuv – akmeologiya yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan,

etuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi. Akmeologiya-insonning etuk aqliy rivojlanishi, shaxsiy hamda ijodiy rivojlanishida ulkan muvaffaqiyatga erishish uchun kerak bo'lgan ob'ektiv – sub'ektiv omillarning texnologiyalarini ishlab chiqadi<sup>11</sup>.

3. Kreativ yondashuv – atamasi AQSHda XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi. U

individning yangi tushuncha yaratishi va yangi - yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

4. Refleksiv yondashuv – (lotincha refleksiya – ortga qaytish) sub'ektning o'z

<sup>10</sup> Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003.

<sup>11</sup> Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. –T.: O'qituvchi, 1996.

ichki psixik tuygʻu va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi. Shuningdek, hozirda pedagogik texnologiyalarning boshqa yoʻnalishlari ham mavjud boʻlib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreaktiv, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv pedagogik texnologiyalardan iborat. Bu yoʻnalishlarning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

Empirik - (tajriba)

- Sezgi aʼzolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy eʼtibor sezgi aʼzolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv-(bilishga oid)

- Atrofdagi olam toʻgʻrisidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalash (tarkibiy qismlarga ajratib oʻrganish) tafakkurini shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik – (haqiqatni topish)

- Yoʻnaltiruvchi savollar berish yoʻli bilan taʼlim berish tizimi. Topqirlik, faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, oʻquv-izlanish taʼlim metodi. Optimallashtirish (koʻp variantlardan eng maʼqulini, mosini tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

Kreaktiv –(ijodiy)

- Tadqiqot xarakteriga, xususiyatiga ega boʻlib, oʻquvchilarda maqsadga yoʻnaltirilgan ijodiy tafakkurni jadal rivojlantiradi.

Inversion –(almashtirish)

- Axborotlarni turli tomondan oʻrganish, oʻrnini almashtirish xususiyatiga ega boʻlib, tafakkur (fikrlash) tizimini shakllantiradi.

Integrativ – (yaxlitlash)

- Axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz koʻp kichik qismlarning oʻzaro ajralmas bogʻliqligi ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona toʻgʻri xulosani aniqlash.

Adaptiv – (moslashtirish)



- Axborotlarni o'rganish va ulardan foydalanish jarayonini o'rganish hamda o'rgatish uchun qulaylashtirish, moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Inklyuziv – (tenglik)

- O'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabatlarida tenglik asosida ta'lim tarbiya jarayonini tashkil qilish. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan o'quvchilarni sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'qishni tashkil qilish pedagogik texnologiyasi<sup>12</sup>.

Shunday qilib, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o'zida metodlar tizimi, ta'lim metodik usullari, maqsad, vositalari, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatish imkoniyatlari hamda yakuniy natijalariga erishish borasidagi majmuani mujassamlashtiradi.

### **Pedagogik texnologiya tushunchasi bilan metodika orasidagi farq.**

Hozirgi kunda o'qituvchilar pedagogik texnologiya haqida aniq tushuncha va tasavvurlar birmuncha kamligi natijasida uni xususiy metodikalar bilan deyarlik teng hisoblash hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud bo'lib, quyida ular haqida qisqacha bayon qilinadi.

**Metod** - grekcha *metodos* so'zidan olingan bo'lib tatbiq qilaman, yo'naltiraman, ilmiy asoslayman degan ma'noni anglatadi, **metodika** - grekcha so'z bo'lib tushuntirishning yangi yo'lini topaman, qidiraman, izlayman degan ma'noni anglatadi.

Metodist olimlarimiz metodika fanini turlicha ta'riflaydilar biroq, ta'riflarning umumiy mohiyati bir-biriga yaqinligini e'tirof etish mumkin.

**Metodika** - biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasidir.

---

<sup>12</sup>Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU, 2003.

**Metodika** - o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat.**Metodika** - fani ma'lum o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

Masalan, **tillar** metodikasi, **arifmetika** metodikasi kabi alohida metodikalarga ajraladi.**Metodika** - o'qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasi, yig'indisidir. O'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

Metodikaning pedagogik texnologiyadan farqini tushunish va amalda har ikkisidan unumli foydalana bilish talab qilinadi<sup>13</sup>.

### **Ular orasidagi ayrim farqlar quyidagicha:**

O'qitish metodi uch xil:

1. An'anaviy metod (sakkiz qismga bo'linadi).
2. No'anaviy metod (o'n qismga bo'linadi).
3. Umumiy o'qitish metodi (olti qismga bo'linadi). Jami 24 ta o'qitish metodikasi bor.

Ushbu farqlar haqidagi masala yuzasidan quyidagi fikrni eslash mumkin. «Aslida zamonaviy ta'lim metodlari muqaddas qiziquvchanlikni hozircha batamom bo'g'ib tashlamagani deyarli mo'jiza, chunki bu nozik nihol (ya'ni qiziquvchanlik) rag'batlantirish yo'li bilan bir qatorda, eng avvalo, erkinlikni talab qiladi, bo'lmasa, u shubhasiz, mavh bo'ladi» (A.Eynshteyn).

Bu yerda ta'lim metodlari qiziquvchanlikka yetarlicha erkinlik bera olmasligi nazarda tutilmoqda. Pedagogik texnologiya esa bolaning qiziquvchanligini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Pedagogik texnologiya tushunchasi xususiy fanlar va mahalliy darajalardagi o'qitish metodikalari tushunchasi bilan mos keladigan hollar xususiy darajadagi pedagogik texnologiyalarga tegishli. Ular orasida faqat asosiy e'tiborni nimaga qaratilishida farqlar mavjud. Texnologiyalarda ko'proq protsessual, miqdoriy va hisob-kitob komponentlari ifodalansa, metodikalarda maqsad, mazmun, sifat va variantli yo'naltiruvchi

---

<sup>13</sup> Yo'ldoshev J.G., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. – B. 158.

tomonlari ko'proq ifodalanadi. Texnologiya metodikalardan o'zining qayta tiklanuvchanligi, natijalarning turg'unligi, ko'plab «agar...»lar (agar o'qituvchi iste'dodli bo'lsa, agar bolalar qobiliyatli bo'lsa, yaxshi ota-onalar bo'lsa... kabilar) yo'qligi bilan farq qiladi.

Ya'ni texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan hamma mutaxassislar tomonidan qayta tiklash va qo'llash mumkinligi bilan juda ham individual bo'lgan metoddan farq qiladi. Metod-biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat.

Bunda harakatni amalga oshirish yo'li deb, bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta yo'llardan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lni aytiladi. Masalan, savod o'rgatish yo'llari: oilada o'rgatish, maktabda o'rgatish, bog'chada o'rgatish, o'qituvchi yordamida o'rgatish, kitoblar, kompyuter, ko'rgazma qurollar va boshqalar vositasida o'rgatish. Shunga o'xshash sanoqni, arifmetik amallarni o'rgatishda ham yuqoridagiga o'xshash yo'llardan foydalanish mumkin. Shu yo'llardan foydalanib harakatni amalga oshirishda turli usullar qo'llaniladi. Usul - nima? Bu biror narsani, hodisani, jarayonni amalga oshirish tartibi.

Pedagogik texnologiya o'quv jarayoni, ya'ni o'qituvchining, o'quvchining faoliyati bilan uning tarkibi, vositalari, usullari va shakllari bilan eng ko'p darajada bog'langanligi bilan ajralib turadi<sup>14</sup>. Hozirgi kunda umumta'limda M.Montessori sistemasi va IMEN texnologiya deb tan olingandir. Bu pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda hozirgi kunda bolani qo'llab-quvvatlash texnologiyalari – bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim, o'yinli texnologiyalar, ta'limning individuallashtirish texnologiyasi, interfaol ta'lim (bolalarni har tomonlama faollashtiruvchi usullar), muammoli ta'lim, loyihali ta'lim texnologiyalari umumta'lim jarayoniga kirib kelmoqda.

---

<sup>14</sup> Ishmuhamedov R., Abduqarodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). -T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009 –B. 160.

Pedagogik texnologiyalarni mukammal bilishimiz va ulardan amaliyotda maromiga yetkazib qo‘llay olishimiz juda muhim.

Pedagogik texnologiya o‘zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi.

Pedagogik texnologiya didaktik hamda tarbiyaviy harakterdagi, shuningdek, ta'lim – tarbiya jarayonini samarali, mahoratli tarzda tashkil etish borasidagi nazariy hamda amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik texnologiya ta'lim – tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir.

Pedagogik texnologiya yo‘naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya'ni u shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiya – shaxsiylik xususiyatiga ega bo‘lib, muayyan texnologiyalarni ta'lim – tarbiya jarayonida qo‘llashga nisbatan yagona, qat’iy, me'yoriy talablar qo‘yilmaydi. Har bir pedagog u faoliyat yuritayotgan ta'lim – tarbiya muhitining xususiyatlari, mavjud ichki va tashqi shart – sharoitlarini inobatga olgan holda muayyan texnologik yondashuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Pedagogik texnologiya o‘zida ta'lim – tarbiya va shaxs taraqqiyoti birligini ifoda etadi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni shakllantirish uchun poydevor bo‘lgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashtirish, o‘quvchining mustaqilligini ta'minlash, o‘qitish jarayonida texnik vositalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishga erishishdan iborat.

Pedagogik texnologiyaning nazariy (asosiy) asoslari umumpedagogik, xususi – metodik hamda lokal (modul) bilimlarga asoslanadi. Shu boisdan pedagogik hodimlar, shuningdek, bo‘lg‘usi o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarida pedagogik texnologiyadan foydalanishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsalar, yuqorida qayd etilgan bilimlarni puxta o‘zlashtira olishlari lozim. Zero,

pedagogik texnologiya puxta o'zlashtirilgan pedagogik bilimlarga tayanilgan holda tashkil etiladigan yuksak samarador pedagogik faoliyat jarayonidir.

Darhaqiqat, pedagogik texnologiya bugun paydo bo'lib qolgan yo'nalish emas. Pedagogik texnologiyani olimlar turlicha talqin etsalarda, uning asl mohiyati oldindan loyihalangan o'quv tarbiyaviy jarayonni amaliyotga izchil va ketma-ket joriy etishda namoyon bo'ladi.

Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi omil sifatida fan asoslari bo'yicha o'quvchilarning ta'lim olishini maqsadga muvofiq tashkil etishni ko'zda tutadi.

Kuzatishlar, tahlil va xulosalar shunga olib keladiki, o'quv mashg'ulotlari, shuningdek, tarbiyaviy jarayonning bir xilda takrorlanishi o'quvchilarda loqaydlik, bilim olishga nisbatan mas'uliyatsizlik kayfiyatini hosil qiladi. Ayni vaqtda bunday holatning oldini olishning eng samarali yo'li sifatida ta'lim muassalari faoliyatiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni izchil va maqsadga muvofiq ravishda tadbiiq etish e'tirof etilmoqda.

Ammo barcha ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayoniga to'liq tadbiiq etilgan, kutilgan natijalarga erishilmoqda, deya olmaymiz. Buning bir qator saboblari mavjud. Bu xususida yuqorida to'xtalib o'tdik. Shuni alohida qayd etib o'tmoqchimanki, texnologik yondashuv asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega. Shu bois ta'lim va tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish har bir pedagogning shaxsiy, imkoniyatlari, kasbiy mahorati, ijodkorlik layoqati darajasiga bog'liq.

Shu bilan bir qatorda ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali tadbiiq ertish uchun zaruriy shart-sharoitlarning yaratilishi lozimligini ham yodda tutish lozim.

Umuman, xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiya ta'lim jarayonida o'quvchi faolligini oshirishga xizmat qiluvchi, erkin, ijodiy muhitni yaratuvchi, ta'lim samaradorligini kafolatlovchi, mahoratli o'qituvchi tomonidan ishlab chiqiladigan pedagogik tizim loyihasidir.

## **II bob. “Hol”, “Aniqlovchi”, “To‘ldiruvchi” mavzularini o‘tishda qo‘llanadigan texnologiyalar**

### **2.1. “Hol” mavzusini o‘tishda qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalar**

5-sinf ona tili darsida “Hol”, “Aniqlovchi”, “To‘ldiruvchi” mavzularini o‘tishda qo‘llanadigan texnologiyalar qolipga solinmaydi, chunki o‘qituvchida mavjud pedagogik mahorat va pedagogik tanlov o‘z o‘rnida munosib usullarni tanlash imkoniyatiga ega.

- hol yuzasidan amaliy ishlar ularni sodda va murakkablarga ajratish;
- hollarning so‘z, so‘z birikmasi, kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi;
- holning ma’noviy turlari jadvali ustida ishlash;

- vositali to'ldiruvchi va holning shaklan farqlanmaslik holatlariga bag'ishlanadi.
- "To'ldiruvchi" mavzusini o'rganishda asosiy e'tibor vositasiz to'ldiruvchi, uning, so'z, so'z birikmasi va kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi;
- o'zga gapni (ko'chirma gapni) kengaygan birikmalar bilan ifodalash;
- vositali to'ldiruvchi, ularda kelishik shakllari va ko'makchilar ma'nodoshligi, ot bilan ifodalangan bo'laklarning to'ldiruvchilar bilan birikishi masalariga qaratiladi.
- Aniqlovchi so'z kengaytiruvchi bo'lganligi uchun ham hol va to'ldiruvchidan keyin o'rganiladi. Mazkur mavzuni o'rganishda ijodiy-amaliy topshiriqlar orqali qaratqichli aniqlovchi va sifatlovchi aniqlovchilar haqida tushuncha hosil qilinadi; ularning so'z, so'z birikmalari bilan ifodalanishi yuzasidan ma'lumotlar beriladi.

Aniqlovchi bilan bir qatorda izohlovchi haqida ham ma'lumot beriladi.

Berilgan izohlovchilarni sodda va murakkab izohlovchilarga ajratish, ularni shaxs nomlari va shaxs otlari, shuningdek, vaqt (yil, oy, kun) otlari bilan birga qo'llash yuzasidan ijodiy-amaliy topshiriqlar bajariladi.

Ona tili ta'limining bosh maqsadi o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq ko'nikmasi, to'g'ri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirishdan iborat. Til o'qitishda til va nutq hodisalarining farqiga yetmaslik ko'pgina chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Til va nutq tushunchalarini bir-biridan ilmiy asosda farqlash uni o'qitish metodikasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Chunki til birliklarining belgilarini, birikuvini va vazifasini bilishning o'zi mazkur tildagi nutqni egallash uchun yetarli emas. Asosiy maqsad tilning grammatik qurilishi asosida nutq faoliyatini egallash bo'lganligi sababli, mashg'ulot materiallarini tanlash, darslarni tashkil etish ishlari o'quvchilarning nutqini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim. Shuning uchun ona tili ma'ruza orqali emas, balki nutq ko'rinishlarini tahlil qilish, so'z birikmasi va gap modellarini o'zlashtirish, esda saqlash orqali o'rganiladi. Bu masala

ushbu dasturning diqqat markazida turadi. Gap haqida fikr yuritilganda professor A. G‘ulomovning quyidagi fikrlarini o‘rinli deb bilamiz. “Gap nutqning kichik bir bo‘lagi sanaladi. 5-sinf ona tili darslarida til nazariyasiga oid ma‘lumotlarni isbotlash va uni mustahkamlash maqsadida juda ko‘p saylanma gaplardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bu gaplarda ko‘pincha grammatik talab hisobga olinsa-da, ammo mavzu birligi e‘tibordan chetda qoladi. Natijada bitta mashqda turli mavzudagi gaplarga duch kelish mumkin. Bu o‘quvchilarning nutqini o‘stirishga ham, ularning bilish faoliyatini faollashtirishga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun iloji boricha gaplarning bir mavzuda bo‘lishini ta‘minlash nutq o‘stirish talablariga mos bo‘lib tushgan bo‘lardi”<sup>15</sup>. Yuqoridagi fikrga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, aslida gapni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalar bu gapning bo‘laklaridir. Shuning uchun ham o‘quvchilarning xotirasini chiniqtirish maktabga borgan kundanoq boshlanishi kerak. Zehni o‘tkir o‘quvchi dastlabki bilimlarni maktabgacha ta‘lim muassasalaridayoq o‘zlashtirgan bo‘ladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining amaldagi «Ona tili» darsliklari kabi, ona tilini chuqur o‘rganishga ixtisoslashgan umumiy o‘rta maktablar uchun yaratilajak «Ona tili» darsliklarining ta‘lim usuli ham, asosan, induktiv bo‘lib, amaliyotdan nazariyaga qarab boriladi. O‘quvchilar amaliy mashqlarni bajarish, matn yaratish, matnlarni tahlil qilish jarayonida fikrlashga, xulosa chiqarishga, umumlashmalar hosil qilishga o‘rganib boradilar. Mavjud darsliklar o‘qituvchidan ham, o‘quvchidan ham mehnat qilishni, izlanishni talab qiladi. Ozginga mehnat, izlanish evaziga o‘zlashtirilgan tushunchalar, fikrlar, hosil bo‘lgan umumlashmalar, xulosalar o‘quvchining o‘z mulkiga aylanadi. Hozirgi kun ta‘limining muhim vazifalaridan biri ham shuki, bola o‘z mustaqil fikrigaega bo‘lsin va shu fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda ravon, izchil, mantiqan to‘g‘ri bayon eta olsin.

---

<sup>15</sup> A. G‘ulomov. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari.- Toshkent, O‘qituvchi, 1992-yil, -B. 38-39.



Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9 sinflarida o'tiladigan «Ona tili» fani o'quvchilarda:

- o'zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo'yicha nutqning og'zaki va yozma shakllaridan to'g'ri foydalanish uchun zarur bo'lgan ilmiy – amaliy ma'lumotlar berishni;
- o'zbek tilida to'g'ri talaffuz, imlo va punktuasiyasining asosiy qoidalarini o'zlashtirib olishni;
- ona tilining so'z xazinasini bo'lmish turli lug'atlardan to'g'ri foydalana olishni;
- o'z fikrini nutq vaziyatiga mos ravishda, turli shakllarda ifodalay olish ko'nikmalarini hosil qilishni;
- muayyan bir xabarni yoki ma'lumotni turli shakllarda bera olish yo'llarini;
- kundalik hayot uchun zarur bo'lgan ish qog'ozlarini yuritish ko'nikmalarini;
- yosh va bilim darajasiga mos bo'lgan badiiy, ilmiy, siyosiy asarlarni o'rganib, ular haqidagi fikr-mulohazasini, shaxsiy munosabatini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri bayon eta olish ko'nikmasini;
- tashqi dunyoni o'rganish va uni til birliklarida ifodalashda, jamiyat a'zolari orasida muloqot o'rnatishda ona tilining beqiyos ahamiyatini his etish uchun zarur bo'lgan nazariy ma'lumot va amaliy ko'nikmalar berishni asosiy vazifalar qilib oladi.

5-sinf o'quvchilari gap bo'laklariga doir mavzularni darslikda keltirilgan qoida va mashq namunalarini asosida o'rgansalar, mavzu ularga tez va oson tushuniladi. Shuningdek, qo'shimcha ma'lumotlar asosida, ya'ni maqollar vositasida o'rganish o'quvchi ongida tez va oson saqlanadi.

Ona tili darslarida mavzu uchun belgilangan mashqlar bir mavzu doirasida bo'lishi diqqatga sazovordir. Chunki o'quvchi bitta mashqda turli- tuman mavzudagi gaplarni tahlil qilsa, uning fikrlashida chigallikni keltirib chiqaradi. Har bir mavzuning yoritilishidagi asosiy maqsadlardan biri tarbiyaviy maqsad hisoblanadi. Gap bo'laklarini o'rgatishimizda, mavzuni yoritishda maqollar ishtirok etgan matnlar ham mavzuga mos keladi, ham matndagi har bir maqolning tarbiyaviy ahamiyati o'quvchi ongiga singdiriladi.

Umuman olganda, o'zbek tili fani bo'yicha nashr qilingan ko'pgina ilmiy adabiyotlarda gap bo'laklari mavzusi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Maktab darsliklarida gap bo'laklarilarni o'rganishda nimalarga e'tibor berish kerak? Bu haqida olimlarimizning fikrlari, ilmiy qarashlari jamlangan kitoblarini o'qishimiz maqsadga muvofiqdir. Chunki har bir o'rgatilayotgan bilim ma'lum bir adabiyotlarga tayangan holda olib borilishi yaxshi samara beradi. Ya'ni, fan taraqqiy etib borar ekan, fanda yangi-yangi qarashlarni kuzatamiz, ilmiy tadqiqotlarga tayanib ish ko'ramiz.

Tilshunoslik tarixida ma'lumki, gap bo'laklari bo'yicha ko'pgina tadqiqotlar olib borilgan. Til tizimida rivojlanish bo'lar ekan, o'zgarishlar ham davom etaveradi.

Umuman olganda, gap bo'laklari mavzusi yuzasidan ko'plab olimlarimiz ish olib borishganini ilmiy adabiyotlarni o'rganganimizda, ilmiy jurnallarni o'qishimizda ko'rishimiz mumkin. Ulardan G'.Abdurahmonov<sup>16</sup>, X.Abdurahmonov<sup>17</sup>, Sh.Iskandarova<sup>18</sup>, H.Ne'matov kabi olimlarning ishlarini, shuningdek, ko'pgina turli yillarda nashr qilingan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitoblarini misol keltirish mumkin. Shuningdek, ona tili ta'limidagi yangi ma'lumotlarni ommaga tatbiq etuvchi "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining turli yildagi turli sonlaridagi ilmiy maqolalarni keltirish mumkin. Masalan, M.Ochilova, M.Qurbonova, H.Shokirovalarning<sup>19</sup> ilmiy maqolalari shular jumlasidandir.

Shuningdek, M.Mirtojiyevning "Gap bo'laklarida semantik-sintaksis nomutanosiblik"<sup>20</sup> nomli monografiyasida ham gap bo'laklari va ularning gap tarkibidagi qo'llanishi xususida atroflicha to'xtalib o'tilgan. Dunyo fani rivojlanish bosqichida davom etar ekan, fan sohasida yangi-yangi ma'lumotlar

---

<sup>16</sup> Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboyeva Z. 5-sinf Ona tili darsligi. -T.: O'qituvchi, 2015.

<sup>17</sup> Абдурахмонов Ф. Қўшма гап синтаксиси асослари. Тошкент: Фан, 1960.

<sup>18</sup> Iskandarova Sh. Qilmoq fe'lining maqollardagi semantikasi // O'zbek tili va adabiyati jurnali. T., 2007, 4-son, - B 71.

<sup>19</sup> Qurbonova M, Shokirova H. Kesimlik shaklidagi shaxs-son aktanti va uning agens valentligiga munosabati. Toshkent, 2008. -B. 36.

<sup>20</sup> Mirtojiyev M. Gap bo'laklarida semantik-sintaksis nomutanosiblik. -Toshkent: Universitet, 2008, -B. 200.

ko‘plab uchrab turadi va shu yangiliklar asosida darslarni tashkil etamiz. Hozirda o‘tiladigan darslar yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib borilmoqda. Bu albatta, o‘quvchiga yangi ma‘lumotni tez va oson yetkazishi mumkin. Dars jarayonida vaqtdan unumli foydalanish ham ko‘zda tutilgan. Chunki ma‘lum texnika vositalaridan foydalanib olib boriladigan dars sifatli va oson tushuniladi. Bunda o‘quvchi bir paytning o‘zida ham eshitib, ham ko‘rib bilimni qabul qiladi.

Aslida jahon andozalariga asoslangan dars usuli ham shudir. O‘quvchiga tushuntiriladigan mavzu, albatta, nazariy jihatdan isbotlangan bo‘lmog‘i lozim. Agarda biror ilmiy adabiyotga asoslanmasdan, biror mavzu yuzasidan ma‘lumot berilsa, mavzuda xatoliklar paydo bo‘ladi, mashqlarni bajarishda ketma-ket xatoliklarga yo‘l qo‘yiladi.

Aslida gap bo‘laklari nima? “Gap tarkibida ma‘lum bir so‘roqqa javob bo‘lib, ma‘lum bir sintaktik vazifada keluvchi so‘z yoki so‘z birikmalari gap bo‘laklaridir<sup>21</sup>. Masalan, gap tarkibida bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligini nazarda tutsak, gapga tegishli yangi qoidalar ham kelib chiqadi. Shunday ekan avvalo, gap bo‘laklari haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lish, va ular tahlili (maqollar misolida) bilan to‘liq tanishib chiqish keyingi bilimlarni olishda o‘quvchi uchun ahamiyatlidir. Ona tili darslarida gap bo‘laklari xususida gapirilganda “O‘zbek tili grammatikasi” kitobidagi fikrlarga asoslanib darslarni tashkil qilish ham ma‘lumotlarning yanada to‘liq bo‘lishini ta‘minlaydi.

5-sinf ona tili darsligida 32-45-mavzular gap bo‘laklarining turlari va mustahkamlashga ajratilgan.

Gap bo‘laklarining gap sintaktik tuzilishini tashkil qilishdagi o‘rni bir xil emas. Ayrim bo‘laklar gap tuzilishida yetakchi o‘rin egallaydi. Shunga muvofiq gap bo‘laklari an’anaviy tilshunoslikda ikki darajaga bo‘lib o‘rganilib kelinmoqda:

a) bosh bo‘laklar;

---

<sup>21</sup> Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: Fan, 2002. -B.29.

b) ikkinchi darajali bo‘laklar.

Gap bo‘laklarining darajalanishi haqida hozirgi kunda boshqa fikrlar ham mavjud. Darajalanish tamoyillari yangicha talqin etilmoqda. Xususan, gap bo‘laklari darajalanishining quyidagi tamoyillari mavjud:

1. Gap tuzilishida qatnashgan bo‘laklar leksik ma’no ifodalaydi. Masalan, ega va kesim leksik va semantik xususiyatga ko‘ra shaxs, predmet, belgi, miqdor, harakat, holat, o‘rin-joy ma’nolarini bildiradi.

Undalma leksik-semantik xususiyatga ko‘ra shaxs, jonli va jonsiz predmetlarga va o‘z-o‘zini undash ma’nosini bildiradi.

2. Gap tuzilishida qatnashgan bo‘laklarning turli so‘z turkumlari bilan ifodalanishidir. Masalan, ega va undalma ot, otlashgan so‘z bilan ifodalanadi.

3. Gap tuzilishda qatnashgan bo‘laklar o‘zaro semantik va Grammatik bog‘lanishi mumkin. Ega bilan kesim moslashuvi va undalma gap bo‘laklari bilan muvofiqlashuvi orqali bog‘lanadi.

4. Gap tuzilishida qatnashgan bo‘laklarning gapdagi vazifasida ma’lumki, gapdagi bo‘laklar vazifasiga ko‘ra an’anaviy tilshunoslikda bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratiladi<sup>22</sup>.

Undalma va kiritmalarni sintaktik xususiyati, grammatik ifodalanish tarkibi, semantik-grammatik bog‘lanishi va gapdagi vazifasiga qarab gapning uchinchi darajali bo‘laklari deb atash mumkin. Bosh bo‘laklarda shakl va mazmun munosabati. Bosh bo‘laklar haqidagi asosiy qarashlar. Gap ikki a’zoning – ega va kesim qismlarining o‘zaro munosabatidan tashkil topadi. Bosh bo‘laklar ega va kesimdan iborat. Lekin bu ikki bo‘lak munosabati haqida tilshunosligimizda turli xil fikrlar aytiladi va aytilmoqda.

Gapda vazifa bajarishi jihatidan bo‘laklar bir xil emas. Ba’zi gapning mazmuniga aniqlik kiritish, to‘ldirish kabi vazifalarni bajaradi, ularning qo‘llanmasligi gap mazmunini tubdan o‘zgartirib yubormaydi. Ba’zi bo‘laklarning gapda ishtirok etishi zarurdir, chunki ularsiz gap maydonga

---

<sup>22</sup> Qurbonova M, Shokirova H. Kesimlik shaklidagi shaxs-son aktanti va uning agens valentligiga munosabati. Toshkent, 2008. –B. 36.

kelmaydi. Shu nuqtai nazardan gap bo‘laklari ikki turga ajratiladi: bosh bo‘laklar, ikkinchi darajali bo‘laklar.

“Ikkinchi darajali bo‘lak” tushunchasi “yoyiq gap” tushunchasi bilan chambarchas bog‘langandir. Chunki sodda gaplarni yig‘iq va yoyiq gaplarga ajratish ikkinchi darajali bo‘laklarning ishtirokiga qarab belgilanadi.

Yig‘iq gaplar bosh bo‘laklardan tuziladi. Yoyiq gaplar esa, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklardan tashkil topadi. Yoyiq gaplarning ba’zilarida birgina ikkinchi darajali bo‘lak qatnashsa, boshqalarida bir necha ikkinchi darajali bo‘lak qatnashadi.

Bosh bo‘laklar bilan ikkinchi darajali bo‘laklarning o‘zaro munosabatida bosh bo‘laklar-hokim, ikkinchi darajali bo‘laklar esa ularga tobe bo‘ladi.

Hokim va tobelik qonuniyatiga asosan gap bo‘laklari atamasi va tushunchasini ifodalashda bir xillik yo‘q. Chunki ular boshqaruvchi va boshqarilmish vaziyatidadir. Shu vaziyat asosida eganing boshqarilishi kesim, aniqlovchiniki aniqlanmish, sifatlovchi sifatlanmish, izohlovchi izohlanmish, qaratqich qaralmish. Lekin to‘ldiruvchi va holning zid jufti grammatik atamashunosligimizda yo‘q. To‘ldiruvchi tushunchasi va atamasining zid jufti sifatida to‘ldirilmish tushunchasi va atamasini, hol tushunchasi va atamasining zid jufti sifatida hollanmish tushunchasi va atamasini tavsiya qilamiz. Bunday atashdan maqsad:

- 1) hodisalarni to‘liq atash;
- 2) to‘g‘ri va o‘rinli atashga erishish;
- 3) tilimiz grammatik qurilishidagi mikrosistemalarni to‘g‘ri anglash va baholashga erishish.

Gapda ega-mutloq hokim. U o‘z tarkibidagi ikkinchi darajali bo‘laklarga ham, kesimga ham hokim. Kesim esa faqat o‘z tarkibidagi ikkinchi darajali bo‘laklarga hokim.

Ega va kesimni bosh bo‘laklar deb, to‘ldiruvchi, aniqlovchi va holni ikkinchi darajali bo‘laklar deb ko‘rsatilishi ularning biri hokim, ikkinchisi tobeligidan

emas, balki ularning o‘ziga xos grammatik xususiyatlaridandir. Bu xususiyat gap bo‘laklarining nutqdagi vazifalari asosida kelib chiqadi.

Ikkinchi darajali bo‘laklarsiz bosh bo‘laklar alohida, to‘liq gap tashkil eta olmaydi, ular gapda bosh bo‘laklarga bog‘liq holda qatnashadi.

Demak, ikkinchi darajali bo‘laklar bir-birlarining ma’nosini bevosita izohlab, to‘ldirib, shular orqali gapdagi bosh bo‘lak ma’nosini to‘ldirishga ko‘maklashadi.

Bitiruv malaka ishimiz gapning ikkinchi darajali bo‘laklarini o‘qitishda innovatsion yondashuv tamoyillarini yoritish ekan, nazariy ma’lumotlarni berish asosiy mezon hisoblanadi.

To‘ldiruvchilarning ifodalanishida morfologik asos bo‘lib xizmat qiluvchi so‘zlar tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari shaklidagi ot va otlashgan so‘zlar sanaladi: *Egilgan boshni qilich kesmas (Maqol)*.

*Yaxshiga yondash, yomondan qoch (Maqol)*.

Aniqllovchilarning ifodalanishida morfologik asos bo‘lib sifat, sifatdosh va boshqa so‘zlar xizmat qiladi: Uning ziyrak, qo‘ng‘ir ko‘zlarida *horg‘inlik* bor edi (S.Anorboev). Hollar, asosan, ravish va ravitishdoshlar bilan ifodalanadi: *U o‘ychan ko‘zlari bilan Botirga qarab sekin gapirdi (S.Nazar)*.

Demak, bevosita bosh bo‘lakka, o‘rni bilan bir-biriga bog‘langan bo‘lakni izohlovchi, aniqlashtiruvchi sintaktik kategoriyalar ikkinchi ***darajali bo‘laklar*** deb yuritiladi. Ikkinchi darajali bo‘laklar *to‘ldiruvchi, aniqllovchi* holdan iborat<sup>23</sup>. Kuzatishlardan ma’lum bo‘ldiki, umumiy o‘rta ma’lim uchun ona tili fanidan 1999-yilda yaratilgan Davlat ta’lim standarti talablarida o‘quvchilarning fonetika, leksikologiya, morfologiya, nutq madaniyati va stilistika, punktuatsiya bo‘limlarini o‘zlashtirishlari uchun zaruriy nazariy tushunchalar anchayin batafsil yoritilgan. Biroq, maktab o‘quvchilarining grammatikaning yana bir muhim qismi bo‘lgan sintaksis bo‘limini o‘zlashtirish

---

<sup>23</sup>O‘rinboev B., Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Samarqand, 2001. –B. 45.

borasidagi nazariy tushunchalariga jiddiy e'tibor qaratilmagan. Bunda faqat sintaksisga tegishli quyidagi ikki band aks etgan:

– gap ohangi, darak, so‘roq, buyruq, undov gaplarda tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash. Ayni gapni darak, so‘roq, undov ohanglarida talaffuz etish va yozish;

– ayni bir fikr-axborotni sodda va qo‘shma gaplar bilan ifodalash.

Yangilangan DTS va o‘quv dasturining e’tiborli jihati shundaki, unda ona tili fanidan har bir sinf o‘quvchilari o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalar alohida tasniflangan. Shu ma’noda, sintaksis bo‘limi ham keng ochib berilgan. Jumladan, **5-sinflarga** tegishli ona tili dasturida gap bo‘laklarini “Sintaksis va punktuatsiya” degan umumiy bo‘limda o‘rganish rejalashtirilgan va undagi mavzularni o‘zlashtirish uchun *46 soat* ajratilgan. 5-sinflarda sintaksisning umumiy mazmun mohiyati, so‘z birikmasi, gap, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari; gapning bosh (ega va kesim) va ikkinchi darajali (to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol) bo‘laklarini; sodda (yig‘iq va yoyiq) gaplarni o‘rganish ko‘zda tutiladi. O‘quvchilarning boshlang‘ich sinflarda o‘zlashtirgan sintaksis bo‘limiga tegishli dastlabki ma’lumotlari mustahkamlanadi va rivojlantiriladi. Umumiy ta’limda ona tili sintaksisni o‘qitish DTS va o‘quv dasturlarida anchayin keng, har bir sinf o‘quvchilari o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalar mufassal bayon qilingan, aniq yo‘nalishlar belgilab berilgan.

Ma’lumki, gapda so‘zlar o‘zaro grammatik munosabatga kirishib gap bo‘laklarini hosil qiladi. Gapda biror so‘roqqa javob bo‘lgan va o‘zaro tobe bog‘langan so‘z yoki so‘z birikmasi gap agi deyiladi. Gap bo‘laklari 2 ga bo‘linadi:

1. Bosh (hokim) bo‘laklar.
2. Ikkinchi darajali bo‘laklar.

Ega va kesim gapning bosh bo‘laklari hisoblanadi. Ular o‘zaro faqat tobe bog‘lanadi va gapning grammatik asosini tashkil etadi.

Ikkinchi darajali bo‘laklar gapning kesimi yoki egasiga tobelanib, ularga ergashib keladigan bo‘laklar hisoblanadi. Bunday bo‘laklar fikrni aniq va to‘liq

shakllantirishga, munosabatni yorqin ifodalashga xizmat qiladi. Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari grammatik ma’nosi va tuzilishiga ko‘ra: to‘ldiruvchi, aniqlovchi va hol kabi bo‘laklarga ajratib o‘rganiladi.

Gap bo‘laklari tuzilishiga ko‘ra ham ikki turga bo‘linadi:

1. **Oddiy bo‘laklar** yakka so‘z bilan ham ifodalanadi (qo‘shma, juft so‘zlar bilan ifodalansa ham oddiy bo‘lak hisoblanadi): *do‘stim keldi, ko‘zoynak taqdi, ota-onasini sog‘indi.*

2. **Murakkab bo‘laklar** turg‘un bog‘lamalar (to‘g‘ri ma’noli va ko‘chma ma’noli), erkin bog‘lamalar bilan ifodalangan bo‘laklardir: Onaxonning oyoq olishi, (nima?) bizga yoqmadi (turg‘un bog‘lama), uch og‘ayni (kim?) shirin suhbat qurishyapti (erkin bog‘lama). Mustaqil so‘zlargina gap bo‘laklari vazifasini bajaradi. Har bir gap bo‘lagi boshqa gap bo‘laklari bilan bo‘lgan Grammatik munosabatiga ko‘ra belgilanadi, ya’ni har bir gap bo‘lagi o‘zi munosabatga kirishgan so‘z bilan sintaktik aloqada bo‘ladi. Masalan: *Shahribonu bugun singlisi uchun rangli qalam sotib oldi.* Ushbu gapda quyidagi gap bo‘laklari mavjud:

Ega – Shahribonu: kim? Kesim – sotib oldi: nima qildi?

Hol – bugun: qachon? Aniqlovchi – rangli: qanaqa?

To‘ldiruvchi – qalam(ni): nimani?

Gapdagi so‘zlar esa quyidagicha sintaktik aloqaga kirishgan:

1) Shahribonu sotib oldi; 2) Qalam sotib oldi;

2) Rangli qalam sotib oldi; 4) Bugun sotib oldi;

5) Rangli qalam; 6) Singlisi uchun oldi.

Ta’lim bosqichlarida gap bo‘laklari, ularning grammatik xususiyatlarining turli tomonlari o‘rganiladi. “O‘quvchilar boshlang‘ich sinflarda gap nima haqida aytilganini bildirgan so‘zni (egani) va u haqda nima deyilganini bildirgan so‘zni (kesimni) topishga o‘rgatiladi. Ega gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildirib, kim?, kimlar?, nima?, nimalar? so‘roqlaridan biriga javob bo‘lishi, kesim ega haqida nima deyilganini bildirib, nima qildi?, nima qilayapti?, nima qilmoqchi? kabi so‘roqlarga javob bo‘lishi, ega bilan kesim



gapning bosh bo‘lagi ekanligi, bosh bo‘laklardan boshqa bo‘laklar gapning ikkinchi darajali bo‘lagi bo‘lishi, ikkinchi darajali bo‘laklar bosh bo‘laklarni va boshqa ikkinchi darajali bo‘laklarni izohlab kelishi bilan tanishtiriladi”<sup>24</sup>. Demak, 5-sinf o‘quvchisi gap bo‘laklari to‘g‘risida, boshlang‘ichdan farqli ravishda, anchayin keng ma‘lumotga ega bo‘lishi lozim. Endi ular kesimning qanday grammatik birlik ekanligi, ega haqidagi xabarni bildirib kelishi, uning so‘roqlari haqida muayyan tasavvur va nazariy tushunchaga ega bo‘lganlari bois, kesimning gap markazi ekanligi, faqatgina kesimdan iborat gaplarning o‘ziga xos xususiyatlari, fe‘l kesim va ot kesimlarga ajralishi, eganing grammatik xususiyatlari, sodda yoyiq va sodda yig‘iq gaplar tuzish, ularni ikkinchi darajali bo‘laklar bilan boyitish kabi yanada chuqurroq bilim va malakalarni egallashlari lozim. Bu bosqichda o‘quvchilarning ikkinchi darajali bo‘laklar to‘g‘risidagi bilimlari ham mustahkamlanaib, rivojlantiriladi. Bu jarayonda o‘quvchilar hol, to‘ldiruvchi va aniqlovchilarning grammatik xususiyatlari, gapda qanday so‘roqlarga javob bo‘lishini bilishlari bilan bir qatorda ayni shu bo‘laklarni qatnashtirib, gaplarni kengaytirishlari, muayyan qolipli gaplar hosil qilishlari, yoyiq gaplar tuzishlari nazarda tutiladi. 5- sinf o‘quvchisiga hol va to‘ldiruvchining grammatik tuzilishini o‘rganish anchayin murakkablik tug‘dirishini e‘tiborga olgan ona tili dasturi mualliflari faqatgina aniqlovchilar to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar berishni tavsiya qilishgan. Bu jarayonda o‘quvchilar sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilar haqida ham muayyan nazariy tushunchalarni egallaydilar, ularning bir-biridan farqini ajratadilar, aniqlovchili birikmalar tuzish bo‘yicha amaliy mashqlar bajaradilar. ***Gap bo‘laklari (32- dars), “Hol haqida umumiy ma‘lumot” (38-dars), “To‘ldiruvchi haqida umumiy ma‘lumot” (39-dars), “Aniqlovchi haqida umumiy ma‘lumot”, “Sifatlovchi aniqlovchi”, “Qaratqichli aniqlovchi” (42-45-darslar).***

---

<sup>24</sup>Omilxonova M. Maktabda ona tili intaksisini o‘rgatish. Ona tili o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1991. -B. 20.

Bu jarayonda o'quvchilar gapning ikkinchi darajali bo'laklari, ularning ma'no va grammatik tuzilishiga ko'ra turlari to'g'risida keng nazariy tushunchalarni egallaydilar, muayyan amaliy mashqlar tizimi orqali ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, gap bo'laklarini o'rganish ta'lim bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlari bilan bog'liq holda tizimlashtiriladi va uzviylashtiriladi. Gap bo'laklari sintaksisning o'ziga xos muhim va yirik bo'limi sanalishini e'tiborga olib, bu bo'limda kirish va yakunlovchi mashg'ulotlarni tashkil qilish mumkin.

***Kirish mashg'ulotida*** gap bo'laklari to'g'risida umumiy ma'lumotlar beriladi. O'quvchilarning bu borada umumiy ta'limda olgan bilim va ko'nikmalari mustahkamlanadi, rivojlantiriladi. Kirish mashg'ulotida gap bo'laklarining grammatik xususiyatlari, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar, sodda yig'iq va soda yoyiq gaplar haqida bahs-munozara uyushtirish, bir bosh bo'lakli gaplarni ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengaytirishga yo'naltirilgan topshiriqlar ustida ishlash mumkin. Shuningdek, bu mashg'ulotda dasturning amaliy qismida tavsiya qilingan ushbu vazifalarni bajarish imkoni ham keng: *Teatr va kino taassurotlari asosida fikr yuritish Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Tavakkal Qodirov kabi qo'shiqchilarining ashulalaridan namunalar tinglash.* Bu jarayonni shunday tashkillashtirish muhim: o'quvchilarga teatr yoki kino taassurotlari aks etgan matn tuzish topshiriladi. Ular topshiriqni bajarishayotganda esa, video yoki audio plastinkadan yuqorida nomlari keltirilgan qo'shiqchilarning ayrim ashulalari tinglanadi. Bunday mazmundagi matnlarni tuzishda qo'shiq tinglash o'quvchilarning his-tuyg'ulariga ijobiy ta'sir qiladi, ularning kino yoki teatr ko'rgandagi iliq taassurotlarini uyg'otadi, tasavvurlarini boyitadi. Shuningdek, matnlar tuzilgach, o'quvchilarga har bir gap bo'lagini ajratib, qanday ifodalanganligini aniqlashni topshirsa ham bo'ladi. Zero, o'quvchilar o'z taassurotlarini ifodalaganda gap bo'laklarining turli ko'rinishlarini qo'llashlari tabiiy.

Gap bo‘laklariga tegishli birinchi mavzuni kirish mashg‘uloti sifatida tashkil qilishning yana bir e’tiborli tomoni shundaki, o‘quvchilar gap bo‘laklariga tegishli navbatdagi har bir mavzuda ayni shu ko‘tarinki kayfiyat, ayni shu qiziqish va hayajon bilan o‘tiradilar, bu mavzularning nihoyatda muhim va qiziqarli ekanligini his qilib turadilar.

**Gapning ikkinchi darajali bo‘laklaridan biri hol hisoblanadi.** 5- sinf o‘quvchisi *hol harakatning qanday bajarilishini, bajarilish o‘rnini, paytini bildirib, qayerga? qayerda? Qayerdan? Qachon? qanday? so‘roqlariga javob bo‘lishini* yaxshi biladi. Shuningdek, o‘quvchilar «Ega+hol+kesim» qolipli gaplar tuzish, berilgan so‘roqlarga javob bo‘ladigan so‘zlar tanlab, yoyiq gaplar hosil qilish malakasiga, hol haqida umumiy ma’lumotga ega. O‘z navbatida, holning ma’no ifodasiga ko‘ra turlarini ham ajrata oladilar: payt holi, o‘rin holi, ravish holi, daraja-miqdor holi, sabab holi va maqsad holining o‘ziga xos tomonlarini farqlay oladilar. Bu bosqichda o‘quvchilar holning tuzilishiga ko‘ra turlari (sodda va murakkab) haqida ham muayyan tasavvur, tushunchalarga ega. Hol doimo fe‘l kesimga bog‘lanadi. Masalan, *Quyosh ko‘kdan mo‘ralab qarar* gapida *qarar*so‘ziga *mo‘ralab* so‘zi bog‘lanib, undan anglashilgan harakatning tarzini, *ko‘kdan* so‘zi *qarar* so‘ziga bog‘lanib, uning o‘rnini bildiradi.


Ba’zan hol ot kesimlarga ham bog‘lanishi mumkin. Bunday vaqtda hol ot kesimdan anglashilgan predmetning o‘rnini bildiradi. Masalan: ***Andijonda o‘t yoqsam, O‘shda tutuni.***

Umumta’limning 5-sinf ona tili dasturida o‘quvchilarga holning ma’no turlari to‘g‘risida to‘liq ma’lumot berish rejalashtirilgan. Shunga ko‘ra, ularga hol to‘g‘risida umumiy ma’lumot berilgan, uning ma’nosiga ko‘ra turlarini ajratish o‘rgatilgan. Ma’lumotlar o‘quvchilar tomonidan to‘ldirilgach, o‘qituvchi uni darslikdagi ma’lumot bilan qiyoslab, kamchiliklarini tuzatadi, kerakli o‘rinlarini to‘ldiradi, ma’lumotlarni umumlashtirib, yaxlit nazariy xulosalarni shakllantiradi.

Navbatdagi jarayonda o'quvchilarga holning ayrim paytlarda kesim vazifasida kelmagan fe'llarga ham bog'lanishi tushuntirish muhim. Chunki hollar ham to'ldiruvchi singari o'zi bog'lanib kelgan fe'lning kesim vazifasida kelishi yoki kelmasligiga ko'ra mustaqil va nomustaqil hollarga bo'linishi aniq misollar yordamida tushuntiriladi:

To'g'ridan to'g'ri kesim vazifasidagi fe'lga tobe bog'lanib kelgan hollarga mustaqil hollar deyiladi: *bahorda gullaydi, shoshib gapirdi.*

Kesim vazifasida kelmagan fe'llarga tobe bog'langan hollar nomustaqil hollar sanaladi: *Teatrdan charchab kelgan Gulnora tezda ovqatga unnadi. Bahorda ochilgan gullar nafasi dilga yoqimli huzur bag'ishlaydi.* Hol mavzusini o'tishda "Tushunchalar tahlil", "Klaster", "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash" kabi turli tuman ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mumkin.



## **TUSHUNCHALAR TAHLILI**

<b>TUSHUNCHALAR</b>	<b>MAZMUNI</b>

Ma'lumki, an'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol – javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayoning passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli–tuman metodlar bilan boyitish o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib kelar ekan.

Shunga ko'ra, hol mavzusini o'tishda, o'quvchilarning mavzu yuzasidan mavjud bilimlari aniqlangach, noan'anaviy ta'limning muammoli usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga mavzu yuzasidan bir qancha savollar berib, muammoli vazit yaratadi. Masalan,

1. Hol qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
2. Holning ma'no turlarini sanab bering.

3. Ravish holining o'ziga xos xususiyatlari nimada?

4. Mustaqil va nomustaqil hollarga izoh bering.

5. Sodda va birikmali hollarni misollar yordamida farqlang.

Mazkur savollarga javob berish jarayonida muammoli vaziyat ham o'z yechimini topa boradi.

Shuningdek, hol mavzusini o'rganish jarayonida o'quvchilarni matn tuzishga yo'naltirilgan topshiriqlar ustida ishlashga chorlash lozim. Bunda kichik guruhlarda ishlash usulidan foydalanish yanada ijobiylik kasb etadi. O'quvchilar 4 yoki 5 guruhga bo'linishadi. Har bir guruh uchun alohida matn tuzish topshiriladi. Matnlar turli mavzularda bo'lishi mumkin: *Vatan, ota-ona, farzandlik burchi, yurt sog'inchi, an'anaviy qadriyatlar, muqaddas urf-odatlar* kabi. Guruh a'zolari matn tuzib bo'lishgach, ularning matni boshqa guruh a'zolari tuzgan matnlar bilan almashtiriladi. So'ngra o'quvchilar tuzilgan matndagi gaplarda ishtirok etgan hollarni aniqlaydilar, ularning ma'no munosabatiga, tuzilishi ko'ra turlarini ajratadilar. Guruh a'zolaridan biri turib bajarilgan topshiriqni taqdim qiladi. Hol mavzusini ta'lim texnologiyalari asosida, xususan, guruhlarga bo'lib o'rganish jarayonida o'quvchilarning faolligi teng ta'minlanadi, mashg'ulot qizg'in tusga kiradi, o'quvchilar mustaqil ish yuritadilar.

Holning ma'no turlari nihoyatda qizg'in bahs-munozaraga boy bo'lgani bois o'qituvchi uni tarmoqlashga asoslangan "Klaster" metodi orqali kengroq tushuntirib berishi maqsadga muvofiq. Bunda o'quvchilar bilan birgalikda holning ma'no turlari, so'roqlari aniqlanib, kerakli o'rinlar to'ldirib boriladi:

Mavzularni o'zlashtirish jarayonida mumtoz adabiy matnlarga murojaat qilish, o'z navbatida, fanlararo aloqadorlikning bir ko'rinishi bo'lib, o'quvchilarning badiiy-estetik didini yuksaltirishga, asarning lingvopoetik tahlili to'g'risidagi bilim va malakalarini rivojlantirishga munosib hissa qo'shadi. G'azal baytlaridagi gap bo'laklarini aniqlash jarayonida o'quvchilar badiiy matnlardagi poetik sintaksis hodisasining o'ziga xos ko'rinishini kuzatadilar. Ushbu g'azalda bosh bo'laklar (ega va kesim)ning, to'ldiruvchi, hol va

aniqlovchilarning turli koʻrinishlari (sodda va murakkab, birikmali, feʼl kesim va ot kesim; ot, olmosh, otlashgan soʻzlar bilan ifodalangan toʻldiruvchilar, aniqlovchilar; taqlid soʻzlar bilan ifodalangan hollar, holning maʼno turlari, qaratqichli va sifatlovchi aniqlovchilar) poetik planda oʻziga xos sintaktik boʻy koʻrsatgan.

Mavzuga tegishli dars ishlanmalari havola qilamiz.

## **5-sinf ona tili**

### **Mavzu: Hol (38-dars)**

#### **Darsning maqsadi:**

- a) taʼlimiy maqsad: oʻquvchilarga hol haqida maʼlumot berish
- b) tarbiyaviy maqsad: oʻquvchilarning farzandlik burchi va maʼsuliyati hissini singdirish.
- d) rivojlantiruvchi maqsad: oʻquvchilarni milliy axloqiy va oʻziga xoslik fazilatlarini rivojlantirish.

**Tinglab tushunish:** sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushunadi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etadi, tinglab tushunadi. Nutqning toʻgʻriligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va taʼsirchanligini anglaydi, barqaror atamalar, kasb-hunar soʻzlarining maʼno xususiyatlarini farqlaydi.

#### **Kommunikativ kompetensiya:**

– oʻrganilgan ifoda vositalari asosida oʻzaro samarali muloqotga kirisha olish, muloqotda nutqiy muhitga moslasha olish.

#### **Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

– mediamanbalardan zarur maʼlumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, ularning xavfsizligini taʼminlash koʻnikmalarini egallash .

#### **Oʻzini oʻzi rivojlantirish kompetensiyasi:**

– doimiy ravishda oʻzini oʻzi mustaqil va ijodiy rivojlantirish, hayot davomida mustaqil oʻqib-oʻrganish, mustaqil qaror qabul qila olish.

### **Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

–sinfda, maktabda, oilada, mahallada va jamiyatda o‘tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish, o‘zining burchini bilish, unga rioya qilish.

### **Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

– vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish, badiiy asarlarni tushunish, nutqiy me‘yorlarga rioya qilish va sog‘lom turmush tarziga amal qilish.

**Darsning turi:** Interaktiv

**Darsning usuli:** Aqliy hujum, savol-javob, guruhlarda ishlash, grammatik o‘yinlar

**Darsning jihozi:** Darslik, ko‘rgazmali qurollar, tarqatmalar.

**Didaktik jihoz:** Tarqatma materiallar, slaydlar, bukletlar.

I. Tashkiliy qism amalga oshiriladi.

-Aziz o‘quvchilar, bugungi darsga hamma tayyormi?

- Ha. (o‘quvchilar javobi)

-Biz o‘tgan darsda “Sodda yig‘iq va soda yoyiq“ gaplarni o‘tgan edik. Uyga vazifa 136 – mashq berilgan edi. Bunda gapdagi bo‘laklarni aniqlash kerak edi.

Uyga vazifa tekshirib chiqiladi. O‘quvchilar mashqda berilgan gapni tahlil qilishadi.

### **O‘tilgan mavzuni mutahkamlash.**

1. Ega deb nimaga aytiladi?
2. Kesim deb nimaga aytiladi?
3. Gap bo‘laklari deb nimaga aytiladi?
4. Kesim necha turga bo‘linadi?
5. Fe‘l kesim qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanadi?
6. Ot kesim qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi?

### **O‘qituvchi:**



-O‘quvchilar hozir biz “Kuch birlikda“ o‘yinini o‘ynaymiz. Bunda sinfni uch guruhga bo‘lamiz va yozuv taxtaning oldiga har bir guruhdan bittadan o‘quvchi taklif qilamiz. Qolgan o‘quvchilar yordam berib turishadi.

Qaysi guruh berigan boshqotirmani tez va to‘g‘ri bajarsa o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi. (uchta guruhga ham bir xil boshqotirma beriladi)

### BOSHQOTIRMA

	Fasl	Ziyon	→				Muqaddas oy	↓
↓	Yashil daraxt	Davr	↘		↙		Tropik meva	
↙				Inkor				
				Shahar nomi	→			↓
	Hasharot					Rangli metal		
	Orzu	→			↘	Faryod		
↙					Uya			
					Kuy	↓		
	Samo							
	Xotira	↙		Nazoratchi	→			
Xalq				Lahza				Shaxmat
Bandi	→			Fusun	→			donasi
↘				Qush a‘zosi	→			↘

Shu tariqa uy vazifani so‘rab baholashga va o‘tilgan mavzuni mustahkamlashga

(6 daqiqa vaqt ajratiladi).

## II. Ma'naviyat daqiqasi:

O'tilgan mavzu yuzasidan ya'ni yoyiq gapga masalan: 1-guruh misol keltiradi .

1- o'quvchi: O'zbekistonda 1-sentyabrda Mustaqillik bayrami shod- xurramlik bilan nishonlanadi.

2- o'quvchi: " Vatan " haqida she'r o'qiydi.

Qulamas devorsan otam tiklagan,  
Tugamas duosan onam tilagan,  
Tebratgan beshigim , yetgan beshigim,  
Sen nursan jonimni o'tga o'ragan,  
Sig'ingan mehrobim, to'rimsan, Vatan.

Tiriklar ko'milmas , mukarram tuproq,  
Yaxshilar yo'lida so'nmagay chiroq.  
Ko'rkli ko'kingdagi lochin bolangman,  
Yo'lagan quzg'unga solaman titroq.  
Yuksak cho'qqidagi qorimsan, Vatan.

Qolgan guruhlar ham tuzgan gaplarini o'qib Vatan haqida she'rlar o'qishadi.

O'qituvchi:

-Ha, biz har bir darsimizda ma'naviy boyligimizni oshirib borishga harakat qilyapmiz, nima uchun?

O'quvchi;

-Chunki bizning ma'naviyatimiz qanchalik boy bo'lsa, ongimizda ma'naviy bo'shliq paydo bo'lmaydi va biz yengilmas, hammadan kuchli bo'lamiz. Yurtboshimiz aynan shuni nazarda tutib; "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" deb aytganlar. O'quvchilar o'zlarining fikrlar bilan faol ishtirok etishadi. (Bu jarayonda 8 daqiqa ajratiladi.)

### **O'qituvchi:**

-Fe'lga bog'lanib, qanday?, qanday qilib, qay tarzda? qayerda?, qayerga? qayerdan? qachon?, nega?, nima uchun?, qancha?, nima maqsadda? kabi so'roqlarga javob bo'luvchi gap bo'lagi hol deyiladi. Hol fe'ldan anglashilgan harakat va holatning bajarilishini bildiradi. Hol ko'proq gap markazi- kesimga bog'lanib, undan anglashilgan ish- harakatning o'rnini, paytini, holatini, bajarilish sababini, maqsadini, daraja miqdorini bildiradigan ikkinchi darajali bo'lakdir.

### **Darslik bilan ishlash.**

137-mashqning 1-topshirig'i og'zaki o'quvchilar bilan birgalikda bajariladi.

### **O'qituvchi:**

-Hozirgacha guruhlarni biz 1,-2,-3-guruhlar deb atadik. Endi esa biz guruhlarga nom qo'yamiz.

1-guruhning nomi: "Payt".

2-guruhning nomi: "Ravish".

3-guruhning nomi: "Maqsad".

3ta guruhga ham topshiriq beriladi. Topshiriq quyidagicha;

**1-guruh:** payt va o'rin holini she'riy misralar hamda gaplar bilan birgalikda ochib berishadi.

**1- o'quvchi:** Hozirgi kunda havo **ertalab** salqin, **tushda** issiq bo'lyapti.

**2-o'quvchi:** Payt holiga: **Bahor chog'i** osmonda

Shunday hol bo'lar goho:

Gumburlab momaqaldiroq

Berar xunuk bir sado.

**3-o'quvchi:** O'rin holiga: Binafsha terib **soydan**,

Atriga qonmay also,

Qalbingizni qitiqlab

Qancha sho'x muddao.

**4- o'quvchi:** **Oilamizda** osoyishtalik, **dunyoda** tinchlik bo'lsin.

**5-o'quvchi:** Mavzuga oid qoida keltiradi.

Ish- harakatning o‘rnini bildirib, qayerga? qayerdan? qayerda? kabi so‘roqlardan biriga javob bo‘lgan bo‘lak o‘rin holi deyiladi.

O‘rin holi o‘zi ergashgan so‘zga boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanadi. O‘rin holi makon-zamon (jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish) kelishiklaridagi so‘zlar yoki ko‘makchili otlar va o‘rin ravishlari bilan ifodalanadi.

Ish-harakat va holatning paytini bildirib, qachon? Qachongacha? Qachondan beri? Qay vaqt? kabi so‘roqlarga javob bo‘lgan hol payt holi deyiladi.

Payt holi ko‘pincha ot yoki payt ravishi bilan , shuningdek , son birikmalari bilan ifodalanadi. Masalan: Bundan o‘n yil ilgari.

**O‘qituvchi:** Navbat 2- guruhga.

**2-guruh:** Ravish va daraja- miqdor holi haqida tushuncha berishadi.

**1-o‘quvchi:** Ish-harakatning qay tarzda bajarilganligini bildirib, qanday? qanday qilib? qanday ahvolda? kabi so‘roqlarga javob bo‘lgan hol ravish holi deyiladi.

Ravish holi ravish, fe‘l va ko‘makchili otlar bilan ifodalanadi.

Ravish holi kesimga bitishuv yo‘li bilan bog‘lanadi. Demak, u ko‘pincha o‘zi ergashgan so‘zdan oldin keladi.

**2-o‘quvchi:** Ko‘zing qaro sening, qoshlaring qaro,  
Yuzlaring oq sening, kulishlaring oq.  
Qo‘lingdagi ta’na toshlaring qaro,  
Menga **g‘amgin** boqib turishlaring oq.

**3-o‘quvchi:**

Daraja-miqdor holiga: Men **juda ko‘p** she’r yodladim.

Paxtakorlar **qop-qop** paxta terishdi.

**4-o‘quvchi:**

Ish-harakatning miqdorini va darajasini bildirib, qancha? nechta? necha marta? qay darajada? so‘roqlaridan biriga javob bo‘lgan hol daraja- miqdori holi deyiladi.

Daraja-miqdor hollari sonlar bilan, miqdor ravishlari *bilan, marta* so‘zi qatnashgan birikmalar bilan ifodalanadi.

**O‘qituvchi:** Navbat 3-guruhga.

**3-guruh:** Sabab va maqsad holini tushuntirib berishadi.

**1-o‘quvchi:** Maqsad holiga.

Bu dunyoga kelmadim ,axir,  
O‘z nomimni **yozmoqlik** uchun.  
Mening nomim shamolda to‘zg‘ib  
Yomg‘irlarda **oqmoqlik** uchun .

**2-o‘quvchi:** Sabab holiga.

**Arzimagan narsa** uchun gap eshitdi.

**Kasalligi** sababli Lobar bugun darsga kelolmadi.

**3-o‘quvchi:**

U **o‘qimagani** uchun javob bera olmadi.

**4-o‘quvchi:**

Ish-harakatning sababini bildirib, nimaga? nima uchun? nima sababdan? nima sababli? kabi so‘roqlarga javob bo‘lgan hol sabab holi deyiladi. **Tinchlik tufayli** yurt obod.

**5-o‘quvchi:**

Ish-harakatning maqsadini bildirib, nima uchun? nima maqsadda? nima qilgani? kabi so‘roqlarga javob bo‘lgan hol maqsad holi deyiladi. M: Bolalar **o‘ynab kelgani** ko‘chaga chiqib ketdi.

3ta guruhga berilgan topshiriqlarni bajarishlari uchun (15 daqiqa) vaqt ajratiladi.

**IV.** Yangi mavzuni mustahkamlash uchun guruhlarga quyidagi savollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi.

**1-guruhga:**

Holning har bir ma’no turiga ikkitadan misol topib yozing va og‘zaki javob bering.

**2-guruhga:**

Sabab va maqsad holiga ikkita misol yozing va og‘zaki javob bering .

### 3-guruhga:

Daraja- miqdor holiga ikkta misol yozing va og‘zaki javob bering.

Guruhlar birin-ketin savollarga javob berishdi.

O‘qituvchi:

Siz bugungi o‘tilgan mavzudan asosan nimalarni ko‘proq esda saqlab qolish lozimligini angladingiz.

O‘quvchilar: O‘tgan mavzumizning barchasini esda saqlab qolish kerakligini angladik. (Bu jarayon uchun 5daqqa ajratiladi.)

V.Guruhlarga o‘tilgan mavzuga aloqador “Boshqotirma” lar tarqatiladi (4daqqa ajratiladi).

So‘ngra darslikdagi 137-mashq matni o‘qitiladi, Keyingi bosqichga “Rolli o‘yin”dan foydalanish mumkin.

138-mashqni shartiga ko‘ra to‘rtta o‘quvchi uni yozuv taxtasida bajaradilar. Mashqning shartiga ko‘ra qoliplar asosida gaplar tuzib, murakkab hollar berilgan jadvalga joylashtiriladi.

Kim?	Qayerda?	Nima qiladi?
?	?	?

Mashq bajarish uchun vaqt (5 daqiqa) ajratiladi.

139-mashq “Mosini tanla”, “O‘z o‘rniga qo‘y” usullarida yozma bajartiriladi.

Bajarishdan oldin o‘qituvchi turli rangli rasmlarni o‘quvchiga tarqatadi.

O‘quvchilar kerakli gapga kerakli rasmni qo‘llab, gaplar tuzadilar.





**Mustahkamlash uchun savollar** “Aqliy hujum” orqali amalga oshiriladi.

Hol yuzasidan o‘quvchilarning olgan bilimlarini sinash maqsadida quyidagi savollar beriladi:

- kesimga bog‘lanib, uning belgisini bildiruvchi bo‘lak...
- hollar tuzilishiga ko‘ra...
- bir so‘zdan iborat hollar...
- ikki yoki undan ortiq so‘z bilan ifodalangan hollar...
- ish-harakatining o‘rnini bildirgan hol turi...
- qachon? qachogacha? qachondan beri? qay vaqt?  
so‘roqlariga javob bo‘luvchi hollar...
- ish-harakatining qay tarzda bajarilganini bildiruvchi hollar...
- qancha? necha? necha marta? qay darajada? so‘roqlariga  
javob bo‘luvchi hollar...
- ish-harakatining bajarilish sababini bildiruvchi hollar...

Tezkor savollar asosida berilgan o‘quvchilarning javoblari baholab boriladi.

## **VI. Darsning yakuni:**

Guruhlarning ishtiroki izohlanadi, faol qatnashgan guruhlar rag‘batlantiriladi, o‘quvchilarga qo‘yilgan ballar sinf jurnaliga qo‘yiladi (2 daqiqa ajratiladi).

## **VII. Uyga vazifa:**

Darslikdagi 140-mashqni shartiga ko‘ra bajarish.

Hol mavzusini o‘tish jarayonida o‘qituvchi o‘z bilim va tajribasiga tayangan holda noan‘anaviy darslar tashkil etib, zamonaviy ta‘lim texnologiyalarining turli usullaridan oqilona foydalansa, dasturiy talablarni to‘la bajarish imkoni kengayadi hamda ona tili ta‘limi samaradorligi oshadi.

### **2.2. “Aniqlovchi” mavzusini o‘tishda qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalar**

Aniqlovchi mavzusini o‘ragnishda ham turli innovatsion pedagogic texnologiyalardan foydalanish mumkin. Dasturda aniqlovchilarni o‘rganish uchun 42-44-darslar ajratilgan. *“Aniqlovchi haqida umumiy ma‘lumot”*, *“Sifatlovchi aniqlovchi”*, *“Qaratqich aniqlovchi”*.

Shunga ko‘ra, dars maqsadi quyidagicha belgilangan:

-aniqlovchi va uning gap tuzilishidagi o‘rni haqida o‘quvchida ko‘nikma hosil qilish. Ayni shu maqsadni amalga oshirishdagi vazifalar uchun ham muayyan reja tuzilgan bo‘lib, ularda aniqlovchi haqida fikr yuritish, aniqlovchilarning ma‘no turlarini o‘rganish ko‘zda tutilgan.

Aniqlovchi va uning o‘ziga xos grammatik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan mavzularni turli noan‘anaviy shakldagi darslarni tashkil etish orqali yanada samarador usullarda o‘tish imkoniyati mavjud. Xususan, bu mavzularda *“Bahs-muhokama”*, *“O‘yin darsi”*, *“Ijod darsi”*, *“Suhbat darsi”*, *“Musobaqa darsi”* kabi noan‘anaviy darslarni tashkil etish, ta‘limning ilg‘or pedagogic texnologiyalariga murojaat qilgan holda, pedagogik faoliyat yuritish ona tili ta‘limining muhim maqsad va vazifalarini ijobiy hal qilishga zamin hozirlaydi. 5-sinfda “Aniqlovchi” mavzusini o‘tish jarayonida ham ta‘limning yangi innovatsion texnologiyalaridan keng foydalanish mumkin. Jumladan, *“Zinama- zina” texnologiyasini* qo‘llash ham nihoyatda samarador ahamiyatga



ega bo‘lib, bu texnologiyani mavzu boshlanishida ham, yakuniy qismda ham qo‘llash mumkin.

Ushbu texnologiya quyidagicha:

*Texnologiyaning tavsifi.* Ushbu mashg‘ulot o‘quvchilarni o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda xotirlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishida ifodalay olishga o‘rgatadi. Bu texnologiya o‘quvchilar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tkaziladi va taqdimot qilinadi.

*Texnologiyaning maqsadi.* O‘quvchilarni erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab, ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga, uni ma’qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan balimlarini qo‘llay olishga o‘rgatish.

*Texnologiyaning qo‘llanilishi:* yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o‘tkazish hamda nazorat darslarida qo‘llanilishi mumkin.

*Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan vositalar:* A-3, A-4 formatli qog‘ozda tayyorlangan chap tomonga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flomasterlar.

*Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:*

- O‘qituvchi o‘quvchilarni mavzular soniga (aniqlovchi, sifatlovchi, sifatlanmish, qaratqichli aniqlovchi, izohlovchi) qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi.
- O‘quvchilar mashg‘ulot maqsadi va uning o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi.
- Har bir guruhga qog‘ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo‘lgan varaqlar tarqatiladi.
- O‘qituvchi guruh a’zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida


qog'ozdagi bo'sh joylariga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi.

– Guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma ko'rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi.

– Tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material albatta sinf doskasiga mantiqan tagma-tag (zina) shaklida qilinadi.

– O'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.

*Natija:* guruhlarda ishlashga o'rganadilar, yangi mavzuni subyekt-subyekt munosabatlari orqali o'zlashtiradilar. "Zinama-zina" texnologiyasini yangi mavzuni tushuntirishdan avval amalga oshirsa, o'qituvchi o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzu atrofidagi bilimlari darajasini aniqlab oladi va ularga ko'proq yangi ma'lumotlar berishga harakat qiladi.




Ma'lumki, aniqlovchi ma'lum bir gap bo'lagi vazifasida kelgan predmetni bildiruvchi so'zlarga bog'lanib, uning belgisini (yoki qarashligini) anglatadi: *qizil olma, aqlli qiz, aytilgan qo'shiq, mening kitobim, gul ifori.*

Aniqlovchilar gap tarkibida har doim otga yoki otlashgan so'zga bog'lanib keladi: *Mayin shabada esdi (otga).* Kichik yaxshilik ham kishiga taskin beradi

(otlashgan soʻz). Oʻqituvchi oʻquvchilarga muayyan savollar berib, ularning umumiy taʼlimda olgan bilimlarini mustahkamlashi mumkin:

1. Qaysi gullarni sevasiz?
2. Qanday ranglarni yoqtirasiz?
3. Kimning asarlarini qiziqib oʻqiysiz?



Bu savollarga berilgan javoblarda aniqlovchilarning turli koʻrinishlarini qoʻllash mumkin. Shuningdek, darslikda berilgan topshiriqlarni bajarish ham oʻquvchilarning aniqlovchilar haqidagi bilimlarini boyitadi:

1- topshiriq. *Oq gul, chiroyli gul, yovvoyi gul* birikmalaridagi soʻzlarning bir-biriga bogʻlanish holatlarini aniqlang.

2- topshiriq. Yuqorida javobingizda gul soʻziga bogʻlanib kelgan soʻzni aniqlang va uning qanday gap boʻlagi ekanligini ayting.

Oʻquvchilar ushbu birikmalar hech qanday vositalar (kelishik va koʻmlakchilar)siz, ohang yordamida bitishuv yoʻli bilan birikkanligini aytadilar. Bu birliklarda gulning muayyan belgilari ifodalanganligini, belgini bildirgan soʻzlar sifat turkumiga mansub boʻlganligi bois, sifat bilan ifodalangan aniqlovchilar sifatlovchi aniqlovchilar deb yuritilishini izohlaydilar. Qaratqich aniqlovchilar haqida ham kengroq maʼlumot berish, amaliy mashqlar bajarish nazarda tutiladi. Qaratqich bilan qaralmsh orasida moslashuv munosabatini tahlil qilish, izohlovchilarning uslubiy xosliklarini oʻrganish yuzasidan muayyan topshiriqlar bajariladi. Bu borada oʻquvchilar dastlab quyidagi topshiriqni bajarishlari maʼqul: jadvalning boʻsh oʻrinlariga berilgan soʻzlardan muvofiqʻini tanlab yozing.

Kimning? Nimaning? Nimasi?

Buvimning mehri

Gulning bargi

Daryo, shovulla; Mirzacho‘l, shamol; olma, rang; oyim, o‘rtoq; kitob, varaq.

Shuningdek, izohlovchilarni o‘rganish jarayonida musobaqa tarzidagi turli o‘yin texnologiyalarini ham qo‘llash mumkin. Bunda “O‘yla. Izla. Top.” texnologiyasi samarador ahamiyatga ega.

Dars jarayonida “Fanlararo integratsiya” usulini amalga oshirish uchun adabiyot darslarida o‘tilgan she‘r, ruboiy va g‘azallarni ham tahlil qilish mumkin.

### **Qishlog‘im**

Qishlog‘im, nechog‘liq suluvsan bugun,

Yashilga burkanib, yashnabsan shuncha.

Nechog‘liq to‘kissan, nechog‘liq to‘kin,

Meni o‘rab oldi xayol, tushuncha:

Qay qo‘raga kirsang – eshigi ochiq,

Bir nima tatiysan, qo‘ymas aslo och.

Demak, bu she‘rdagi gap bo‘laklarini aniqlab, ostiga chizib qo‘yishdan tashqari, ularning o‘ziga xos grammatik xususiyatlarini ham, ma’no turlarini ham ajratib o‘rganish ham mumkin. Bunday tahlillar orqali o‘quvchilarning gap bo‘laklari to‘g‘risidagi bilim va malakalari mustahkamlanadi, rivojlantiriladi, o‘z navbatida poetik sintaksisning mumtoz ko‘rinishlari to‘g‘risidagi tasavvurlari boyiydi, badiiy-estetik didlari kamolga etadi. Mazkur g‘azaldagi gap bo‘laklari tahlilida har bir gap bo‘lagini alohida tasniflovchi turli jadvallardan ham foydalanish mumkin.

### **5-sinf ona tili**

#### **Mavzu: Aniqlovchi**

#### **Darsning maqsadi:**

a) Ta’limiy maqsad: aniqlovchi haqida ma’lumot berish.

b) Tarbiyaviy maqsad: sabr qanoatlik bo‘lish fazilatlarini tarbiyalash.

d) Rivojlantiruvchi maqsad: ma'naviy- axloqiy fazilatlarni rivojlantirish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:**

– mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, ulardan samarali foydalana olish, ularning xavfsizligini ta'minlash ko'nikmalarini egallash .

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

– doimiy ravishda o'zini o'zi mustaqil va ijodiy rivojlantirish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, mustaqil qaror qabul qila olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

–sinfda, maktabda, oilada, mahallada va jamiyatda o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish, o'zining burchini bilish, unga rioya qilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

– vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy asarlarni tushunish, nutqiy me'yorlarga rioya qilish va sog'lom turmush tarziga amal qilish.

**Darsning turi:** Yangi ma'lumot berish.

**Darsning metodi:** Aralash, “Charxpalak”, “Davom ettir!”, “Kim to'g'ri bajaradi?” usullari

**Darsning jihozi:** Aniqlovchi va uning turlari aks etgan chizma.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qism amalga oshiriladi.** Salomlashiladi, davomat aniqlanadi.

**II.O'tilgan mavzuni “Aqliy hujum” usulida mustahkamlanadi.**


- 1.To'ldiruvchi deb nimaga aytiladi?
- 2.To'ldiruvchi qaysi bo'lakka bog'lanadi?
- 3.To'ldiruvchini hokim bo'lakka bog'lovchi vositalar.
- 4.Hol deb nimaga aytiladi?
- 5.Gapning bosh bo'laklari haqida ma'lumot bering.
- 6.To'ldiruvchining tagiga qanday chiziq chiziladi.

### III. Yangi mavzu bayonini taqdimotlar orqali tushuntirish mumkin.

Bugungi mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarga topshiriq beriladi. Gapda "Qanday?" so'roqqa javob bo'luvchi so'zlarni o'quvchilar topadilar va shu haqida o'z fikrlarini bildiradilar. O'quvtuvchi tomonidan umumlashtiriladi. Hokim bo'lakdan anglashilgan arakatning qandayligi, kimga yoki nimaga tegishligi, qarashli ekanligini bildirib, qanday?, qanaqa?, qaysi?, qancha?, qancha?, necha?, kimning?, nimaning? kabi so'roqlariga javob bo'luvchi gap bo'lagiga aniqlovchi deyiladi. Qovunning og'iri shirin bo'ladi. Aniqlovchi ma'nosiga ko'ra ikki xil bo'ladi.

1.Sifatlovchi aniqlovchi.

2.Qaratqich aniqlovchi.




Tahlilda aniqlovchilar ostiga to'lqinli chiziq (.....) chiziladi.

Maktabimizning katta va chiroyli bog'i bor.

Bilimli va huharli kishi hamma joyda azizdir.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.** Darslikdagi mashqlar, savol-javoblar asosida bugungi mavzuni mustahkamlaymiz. 150- mashq o'qiladi va o'quvchilar o'z fikrlarini bildiradilar bu mashq bahs-munozara tarzida bajariladi. Matnga mos sarlavha qo'yiladi. "Charxpalak" usulidan foydalanib, tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish mumkin. "Davom ettir!" usulidan foydalanib, mavzuga mos maqol va she'rlar aytiladi.



2-topshiriq ham shartidagidek bajariladi.

**“Kim to‘gri bajaradi?”** sharti asosida 151-mashq yozma bajariladi.

Kuz fasli haqida kichik matn yozish orqali 152-mashq bajariladi. **O‘qituvchi kuz fasliga oid rasmlarni havola qiladi.**





**“Mening o‘rnim qani?”** o‘yini asosida 153 –mashq bajariladi.

Mustahkamlash uchun ushbu tarqatmalardan foydalanish mumkin:

1. Aniqlovchi deganda nimani tushunasiz?
2. Sinf xonangizda jihozlar to‘g‘risida aniqlovchilardan foydalanib uchta gap tuzing.

#### **V. O‘quvchilarni baholash.**

Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilarni baholanadilar.

**VI. Uyga vazifa.** Sabr, odat, bilim, mehr so‘zlari ishtirokida gaplar tuzish topshiriladi.

### **Mavzu: Sifatlovchi aniqlovchi**

#### **Darsning maqsadi:**

- a) ta’limiy maqsad: “Sifatlovchi aniqlovchi” mavzusi haqida ma’lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarda tabiatga nisbatan mehr uyg‘otish, ekologik tarbiyani singdirish;
- c) rivojlantiruvchi maqsad: inson va tabiat birligi tushunchani singdirish.

#### **O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**



– doimiy ravishda o‘zini o‘zi mustaqil va ijodiy rivojlantirish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, mustaqil qaror qabul qila olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

–sinfda, maktabda, oilada, mahallada va jamiyatda o‘tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etish, o‘zining burchini bilish, unga rioya qilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

– vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish, badiiy asarlarni tushunish, nutqiy me‘yorlarga rioya qilish va sog‘lom turmush tarziga amal qilish.

**Darsning turi:** Yangi ma’lumot berish.

**Darsning metodi:** Bahs –munozara, “Kim chiroyli gap tuzadi?”, “Klaster” usullari

**Darsning jihozi:** tabiat tasvirlangan surat, taqdimotlar, tarqatmalar.

**Darsning borishi:**

**I. Tashkiliy qismda** salomlashiladi va davomat aniqlanadi.

**II.O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. “Aqliy hujum”** metodidan foydalangan holda o‘tilgan mavzuni mustahkamlaymiz.

- 1.Aniqlovchi deb nimaga aytiladi?
2. Aniqlovchi qanday so‘roqlarga javob beradi?
3. Aniqlovchinig tagiga qanday chiziq chiziladi?
- 4.Aniqlovchi qaysi gap bo‘laklariga tobe bo‘lib keladi.
- 5.To‘ldiruvchi deb nimaga aytiladi?
- 6.Gap bo‘laklari haqida ma’lumot bering.

**III. Yangi mavzu bayoni.** Mavzu darslikdagi topshiriqlarni bajarishdan boshlanadi. Unda gul, olma, uy, ko‘cha, so‘zlarining oldiga o‘quvchilar sifatlovchi aniqlovchilarni topib ko‘chirishlari kerak. Ba’zi o‘quvchilar bu topshiriqlarni bajarishda otlar oldiga sifatlarni qo‘yadilar. Lekin sifatlovchi aniqlovchilar son, olmosh, ravish bilan ham ifodalanishi mumkin. Hokim bo‘lakdan anglashilgan narsaning belgisini bildirib, qanday?, qancha?, qanaqa?, qaysi?, qancha so‘roqlariga javob bo‘lgan aniqlovchiga sifatlovchi

aniqlovchi deyiladi. Sifatlovchi aniqlovchi predmetning belgisini, miqdorini, tartibini bildiradi. Sifatlovchi aniqlovchi tomonidan aniqlangan bo‘lak sifatlanmish deb yuritiladi. Sifatlovchi aniqlovchi quyidagicha ifodalanishi mumkin.

1. Sifat, son, olmosh, sifatdosh, ravish taqlid so‘z bilan ifodalanadi.

Mevazorda shirin, nordon, qizil olmalar ko‘p.

2.Ot bilan. Asfalt yo‘ldan mashinalar g‘iz – g‘iz o‘tib turibdi.

3.Ibora bilan. Unda og‘zining tanobi qochadigan odat bor.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

Darslikdagi mashqlar va savol-javoblar asosida mustahkamlanadi.

155 -mashq og‘zaki bahs-munozara tarzida bajariladi.

1- topshiriq. Nuqtalar o‘rniga quyida berilgan so‘zlarning sifatlovchilarini topib ko‘chiring.

..... gul, ..... olma, ..... uy, ..... ko‘cha, ..... ovqat, ..... bino.

2-topshiriq. Quyida berilgan kataklarni mos so‘zlar bilan to‘ldiring.

Chiroyli	<input type="text"/>	Kamtar	<input type="text"/>
So‘lim	<input type="text"/>		
Musaffo	<input type="text"/>	Mehribon	<input type="text"/>

155- mashq. Matnni sinchkovlik bilan o'qing. Mazmunini so'zlab berishga tayyorlaning, ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qanday so'roqqa javob bo'lishini hamda qaysi gap bo'lagi bo'lib kelayotganini aniqlang.

Bugungi kunga kelib ekologik muammo hayotimizning eng dolzarb masalasiga aylandi. *Uzoq* yillar davomida *bu* muammolarni hal qilish uchun *jiddiy* ish olib borishga yo'l berilmadi. U davrlarda *bepoyon* o'lkamizning beqiyos boyliklarini asrash butunlay yot tushuncha edi. Natijada *serunum* yerimiz kasallandi, *beg'ubor* havo, *musaffo* suvlar bulg'andi. Hozirda tabiatga qarash butunlay o'zgardi.

**“Kim chiroyli gap tuzadi?”** o'yini asosida 156-mashq bajariladi.

Buning uchun o'qituvchi hayvonlar, qushlar, tabiat rasmlari tushirilgan ko'rgazmani o'quvchilarga namoyish qiladi. Shu ko'rgazma asosida gap tuzdiriladi.






157-mashq og‘zaki bajariladi.

Sifatlovchi qanday javob bo‘ladi?	aniqlovchi savollarga	Narsaning deganda tushunasiz?	belgisi nimalarni	Sifatlovchi aniqlovchilarni toping

Aniqlovchi va holning grammatik xususiyatlarini “Ven diagramma” usulida tahlil qilish mumkin.



**V. O‘quvchilarni baholash.** Dars davomida faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi.

**VI. Uyga vazifa.** Tabiat mavzusida kichik hikoya tuzish topshiriladi.

### **2.3. “To‘ldiruvchi” mavzusini o‘tishda qo‘llanadigan pedagogik texnologiyalar**

Maktabda “To‘ldiruvchi” mavzusini an’anaviy ta’limning samarador ko‘rinishlariga tayanib, noan’anaviy shakllarda o‘tish maqsadga muvofiq. Chunki o‘quvchilar ikkinchi darajali bo‘laklari xususiyatlari to‘g‘risida boshlang‘ich ta’limdan bir qadar ma’lumotga ega. Endi ana shu ma’lumotlarni mustahkamlash va kengaytirish lozim. Buning uchun o‘quvchilarni faollashtirishga asoslangan ta’lim texnologiyalaridan foydalanish samarador ahamiyatga ega. Shulardan biri “B/B/B/” texnologiyasidir. Bunda o‘qituvchi, dars avvalida “B/B/B” (bilaman, bilmoqchiman, bilib oldim) usulidan foydalanib, yangi mavzuda o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan nazariy tushunchalarni aniqlashtirib olishi zarur. O‘qituvchi “B/B/B” usuli talablarini aks ettirgan jadvalli kartochkalarni o‘quvchilarga tarqatadi. Bu jarayonda o‘quvchilar to‘ldiruvchi haqida nimalarni bilishlarini aytadilar, nimalarni bilmoqchiliklarini belgilaydilar va o‘zlashtirgan yangi ma’lumotlarini qayd etadilar.

To‘ldiruvchi gapning ikkinchi darajali bo‘lagi bo‘lib, kimni? nimani? Kim (bilan, uchun, orqali)? Nima (bilan, uchun, orqali)? so‘roqlarga javob bo‘ladi.

Bu usulda, birinchi navbatda, o‘quvchilarning o‘rganilayotgan (to‘ldiruvchi) mavzuga tegishli bilim va ko‘nikmalarining mavjud holati aniqlanadi va ayni shu nuqtai nazarga yondashib navbatdagi vazifalar belgilanadi. Endi o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining to‘ldiruvchi haqidagi umumiy tushuncha va tasavvurlarini aniqlaydi, ular yana nimalarni o‘zlashtirishga qiziqishayotganligi oydinlashdi. Shunga ko‘ra, o‘qituvchi dasturga tayangan holda o‘quvchilarni qiziqtirayotgan muammolar yechimini hal qiladi. Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar o‘zlari uchun zarur nazariy tushunchalarni o‘rganadilar va jadvalning uchinchi qismini, ya’ni nimalarni bilib olganliklarini dars oxirida to‘ldiradilar.

O'qituvchi o'quvchilarga mavzuga tegishli yangi ma'lumotlarni berish jarayonida muammoli vaziyatlar yaratib, o'quvchilarga turli savollar bilan murojaat qilishi, to'ldiruvchilarning turli ko'rinishlari aks etgan gaplar tuzdirishi ham mashg'ulotga qizg'in kayfiyat baxsh etadi, ham o'quvchilar faolligini teng ta'minlaydi. Demak, o'quvchilarni qiziqirayotgan muammolar aniqlandi, shuningdek, dasturda ham o'rganilishi lozim bo'lgan nazariy tushunchalar, bajarilishi lozim bo'lgan amaliy mashg'ulotlar aniq belgilangan. Shunga ko'ra, o'qituvchi quyidagi savollar orqali o'quvchilarga murojaat qilib mavzu mohiyatini birin-ketin yoritib boraveradi:

1. To'ldiruvchi qanday so'zlar bilan ifodalanadi?
2. *Kitobni o'qidim, mevalarni terdim, onamdan so'radim, opam uchun oldim* kabi holatlardagi to'ldiruvchi va kesim munosabatini izohlang.
3. Vositali va vositasiz to'ldiruvchilar farqini aniq misollar bilan izohlang.
4. Birikmali gap bo'lagi nima?
5. Mustaqil va nomustaqil to'ldiruvchiga misollar keltiring.
6. *Kinoga bordim, ukam bilan ko'rishdim, telefon orqali gaplashdim, onamni sog'indim, otamdan so'radim* kabi birliklarda to'ldiruvchilar kesim bilan qanday vositalar orqali bog'langan?

Bu kabi savollarga o'quvchilar imkoniyatlari doirasida javob beradilar va o'qituvchi qolgan o'rinlarni to'ldiradi, nazariy tushunchalar bilan boyitadi, talbalarga to'ldiruvchining grammatik xususiyatlarini keng tushuntirib beradi.

Navbatdagi bosqichda esa darslikda berilgan mashqlar tizimi ustida ishlanadi, ayrim topshiriqlar dars jarayonida, ba'zilar esa uyda bajariladi. Darsning oxirgi bosqichda esa, yangi mavzuni mustahkamlash uchun "Klaster" texnologiyasidan foydalanish ijobiy samara beradi. Ushbu tushunchalarning har biriga tegishli misollar keltirish ham o'quvchilar xotirasini mustahkamlaydi, tafakkurini kengaytiradi. To'ldiruvchilarning ifodalanishini jadvallashtirib o'rganish ham ijobiy samara beradi. Bunda o'quvchilar muayyan so'z turkumlari bilan ifodalangan to'ldiruvchilardan namunalar keltirishadi. Misollar tanlash, gaplar tuzishda ham ularning mantiqiy

mazmuniga, didaktik ahamiyatiga alohida e`tibor qaratish lozim. Ayniqsa, badiiy matnlardan olingan misollar o`quvchilarning nazariy tushunchalarini mustahkamlash bilan bir qatorda, ularning badiiy-estetik didini, dunyoqarashini rivojlantirishga munosib hissa qo`shadi:

Ot bilan ifodalangan to`ldiruvchilar?

Olmosh bilan ifodalangan to`ldiruvchilar?

Otlashgan so`z bilan ifodalangan to`ldiruvchilar?

Men *Vatanni* bog` deb aytsam,

Sensan unda bitta gul.

Yurtim, senga she`r bitdim bu kun.

Bu dunyoning nokaslari bor,

*Ezgulikni* ko`rolmaydilar.

Orazin yopg`och *ko`zimdin* sochilur har lahza yosh.

*Meni* men istagan o`z suhbatig`a arjumand etmas.

*Yaxshiga* qilsang yaxshilik ham aytadi, ham qaytadi,

*Yomonga* qilsang yaxshilik na aytadi, na qaytadi.

Bunday misollarni nasriy va drammatik asarlardan tanlasa ham bo`ladi. Bu shakldagi jadvallarni uyga topshiriq sifatida berish, misollar uchun aynan bir ijodkor asarlarini yoki aynan bir tur, bir janrdagi asarlarni tanlash xilma-xillikni yuzaga keltiradi. Turli shakl va mazmundagi, turli ijodkorlarning asarlaridan tanlangan turli badiiy parchalar o`quvchilarni yangi ma`lumotlar bilan tanishtiradi, ularni izlanuvchanlikka, bahs-munozaraga chorlaydi. O`quvchilar to`ldiruvchining o`ziga xos grammatik xususiyatlari bilan chuqur tanishib bo`lgach, o`tilgan mavuzuni mustahkamlashga yo`naltirilgan quyidagi jadvalni to`ldirishni topshirish mumkin:

**Oldin o`quvchilarga to`ldiruvchilar haqida to`liq ma`lumot beriladi.**

Mustaqil to`g`ridan- to`g`ri kesimga bog`lanib kelgan to`ldiruvchilar mustaqil to`ldiruvchilar hisoblanadi.

Kitobni o`qidim, onamni sog`indim.

<b>Nomustaqil</b>	
<b>Birikmali</b>	
<b>Vositali</b>	
<b>Vositasiz</b>	
<b>Kelishikli</b>	
<b>Ko'makchili</b>	

Ushbu jadvalda ham nazariy tushunchalarni yoritish, ham turli mazmundagi misollar keltirish talablarning mavzuni o'zlashtirganlik holatini ko'rsatadi va bir darsning o'zidayoq barcha talabalarni munosib baholashga yordam beradi. Har qanday mavzuni o'tishda ham dastur talablariga rioya qilish, darsliklarda berilgan topshiriqlarni etarli darajada bajarishga erishish ona tili ta'limi samaradorligini oshiradi. Shu ma'noda, to'ldiruvchi mavzusi o'tilganda ham darsliklar bilan ishlash maqsadga muvofiq. Chunki umumta'lim maktablari uchun yaratilgan darsliklar ancha mukammal ishlangan bo'lib, unda o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, nazariy bilimlarini mustahkamlash, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltiruvchi turli mazmundagi topshiriqlar berilgan.

Xullas, to'ldiruvchi mavzusini o'tishda turli dars shakllari, tiplaridan foydalanish, turli ta'lim texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari nihoyatda keng. Bularning qay birini qo'llash, darsni qanday tashkil qilish ona tili o'qituvchisining pedagogik mahorati, bilim va tafakkuriga bog'liq. Har qanday vaziyatda ham, DTS, o'quv dasturi talablariga tayangan holda ish yuritish, darslikka murojaat qilish dastlabki o'rinda turishi lozim. Mavzu mohiyati, o'quvchilarning intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda esa, dars jarayonida noan'anaviy ta'limning turli texnologiyalarini qo'llash mumkin.

5-sinfda gapning ikkinchi darajali bo'laklari o'rganilgach, o'quvchilarda nutqda gap bo'laklarining o'rnini va ahamiyati, uslubiy xosliklari yuzasidan o'zlashtirgan bilim mustahkamlanadi.

Yirik hajmdagi bunday mavzularning oxirgi darsini zamonaviy ta'lim texnologiyalariga tayangan holda **“Yakunlovchi mashg'ulot” yoki**



*“Konferensiya darslari”ni* tashkil qilib yakunlash o‘ziga xos mazmun-mohiyatga, pedagogik maqsadga tayanadi. Bunday darslarda pedagogik muhit ham, o‘quvchilarning qiziqish va intilishlari ham faol tusga kiradi, ta’lim samaradorligi oshadi. “Keyingi yillarda tashabbuskor, izlanuvchan o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilayotgan bahs-munozara, sinov, matn yaratish, yozma ishlar, nazm, konferensiya, sayohat, ssenariyli dars kabi noan’anaviylik juda foydali bo‘lib, dars jarayonida o‘quvchi o‘quvchilar ham faol ishtirok etishga muvaffaq bo‘lmoqdalar.

Konferensiya darslari yakuniy mashg‘ulotning bir shakli bo‘lib, bunday darslar maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Konferensiya darslarida o‘quvchilarning mavzu yuzasidan ma’ruzalari tinglanadi, shoir va yozuvchilarning asarlaridan yod olinadi, dramatik asarlardan parchalar sahnalashtiriladi, gramplastinka va magnit lentalaridan kuy tinglanadi, adabiy o‘yinlardan va texnik vositalardan foydalaniladi. Konferensiya tarzda o‘tkaziladigan darsda o‘quvchilar o‘rganilgan asarning tarbiyaviy ahamiyatini dasturdagi an’anaviy darslardan ko‘ra chuqur anglab etadilar. Ma’ruzalarni tayyorlash jarayonida ularda qo‘shimcha manbalardan foydalanish malaka va ko‘nikmasi shakllanadi”<sup>25</sup>.

Shunga ko‘ra, maktabda gap bo‘laklarining grammatik xususiyatlari o‘rganib bo‘lingach, oxirgi darsni konferentsiya tarzida tashkil qilish maqsadga muvofiq. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga gapning ikkinchi darajali bo‘laklari bilan bog‘liq mavzular yuzsasidan matn tayyorlab kelishni topshiradi. Shuningdek, gapning ikkinchi darajali bo‘laklari faol ishtirok etgan ayrim g‘azallar, she‘rlardan tanlab yod oldiradi va dars jarayonida mazkur she‘rlarni ifodali aytirib, ular matnidagi gap bo‘laklarini aniqlash mashqlarini bajartiradi. Darsda integratsiyani ta’minlash uchun esa ayrim g‘azallarning qo‘shiq qilib kuylangan variantidan ham foydalanish mumkin. Bunday shaklda tashkil qilingan darslarda o‘quvchilar mustaqil ma’ruza tayyorlash jarayonida qo‘shimcha ilmiy-badiiy adabiyotlardan foydalanishadi, sintaktik tahlil

---

<sup>25</sup>B. To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyadova. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2010, 49-b.

malakalarini rivojlantirishadi, bir-birilarining tayyorlagan ma'ruzalarini tinglab, o'z munosabatlarini bildirishadi, bahs-munozaraga kirishishadi. Bu esa, o'z navbatida, o'rganilgan mavzularning mustahkamlanishiga, ona tili darslarining qiziqarlilik darajasini oshirishga munosib yordam beradi.

### **5-sinf ona tili**

#### **Mavzu: To'ldiruvchi**

#### **Darsning maqsadi:**

- a) Ta'limiy maqsad: mavzu haqida o'quvchilarga ma'lumot berish.
- b) Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni sog'liqni qadriga o'rgatish.
- d) Rivojlantiruvchi maqsad: ma'naviy fazilatlarni rivojlantirish

**Darsning turi:** Yangi ma'lumot berish.

**Darsning metodi:** Bahs-munozara darsi, "Klaster", "Aqliy hujum", "Venn diagramma"

**Darsning jihozi:** To'ldiruvchi ishtirok etgan gaplar tushurilgan jadval.

#### **Darsning borishi:**

##### **I.Tashkiliy qism.**

##### **II.O'tilgan mavzuni so'rash.**

##### **III.Yangi mavzu bayoni.**

##### **IV.Yangi mavzuni mustahkamlsh.**

##### **V.Uyga vazifa topshirish.**

##### **O'tilgan mavzuni mustahkamlash.**


O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun **"Aqliy hujum"** metodidan foydalanamiz.

- 1.Hol deb nimaga aytiladi?
- 2.Gap bo'laklari haqida ma'lumot bering.
- 3.Ega deb nimaga aytiladi?
- 4.Kesim deb nimaga aytiladi?
5. Kesim necha turli bo'ladi?
- 6.Ot kesim haqida ma'lumot bering
- 7.Fe'l-kesim haqida ma'lumot bering.


### III. Yangi mavzu bayoni. Taqdimot namoyish qilinadi.



- To'ldiruvchi hokim bo'lakka 2 xil yo'l bilan bog'lanadi



O'quvchilarga savol beriladi: Hol ham to'ldiruvchi ham fe'lga bog'lanib kelar ekan u holda ular nimasi bilan bir-biridan farq qiladi? "Vendiagramma" orqali tahlil qilinadi.



“Tushunchalar tahlili”dan foydalaniladi.

Tushunchalar	Mazmuni

Ziyrak o‘quvchi ularning savollari va tagiga chiziladigan chiziqlari bilan bir-biridan farq qilishini aytib o‘tadi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlsh.** Mavzu tushuntirib berilgach, darslikdagi mashqlar bilan mustahkamlanadi.

2-topshiriq quyida berilgan gapda to‘ldiruvchining hokim bo‘lakka nimalar vositasida bog‘langanini ayting

- 1) Mashina bilan (nima bilan?) terdi
- 2) Mashinada (nimada?) terdi.
- 3) Go‘zal shaharni rasmini (nimani?) chizdik.
- 4) quyoshnig botishini (nimani?) kuzatdik



## 1-topshriq. Nuqtalar o'rniga tegishli bo'lg'ovchi vositalarni qo'yib ko'chiring

- Ukam .... daftar oldim.
- Mashina... yuklar tushirildi.
- osmon... qushlar uchib yuribdi.
- Qalam .... rasm chizdi.



141-mashq yozma bajartiriladi. Maqollarni ko'chiring va maqollar haqida o'z bildiringizni bildiring. Bahs-munozara asosida amalga oshiriladi.

“Nuqtalar o'rnini to'ldiring” sharti asosida 142 – mashq bajariladi.

“Birni kessang o'nni ek!” deganda nimani tushunasiz? Mana shu haqda bahs-munozara, “Xotira mashqi” tashkil qilinadi.

## 143-mashq. “Davom ettiring” o'yinini tashkil qiling. Tuzgan gaplaringizda to'ldiruvchilardan foydalaning, ularni izohlang. Namuna:

- 1 • 1-o'quvchi:  
• Suv bilan yer ko'karadi
- 2 • 2-o'quvchi:  
• Duo bilan- el.
- 3 • 3-o'quvchi:  
• Bu gapda 2 ta to'ldiruvchi bor: suv bilan, duo bilan (nima bilan?), ular ko'makchi bilan hokim so'zga bog'lanyapti.

1. To'ldiruvchi deganda qanday bo'lakni tushunasiz?
2. Quyidagi chiziqlar o'rniga tegishli gap bo'laklarini qo'ying.

\_\_\_\_\_

**V.O'quvchilarni baholash.** Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

**VI.Uyga vazifa uchun**144-mashq topshiriladi.

Umumta'lim maktablarining 5-sinf o'quvchilari uchun ona tilidan to'garak mashg'ulotlari tashkil qilingan. Quyida shu to'garak uchun "Gap bo'laklari va uning ifodalanishi" mavzusi uchun dars ishlanma havola etamiz.

### **Mavzu: Gap bo'laklari va uning ifodalanishi**

**Darsning maqsadi:**

**Ta'limiy:** O'quvchilarning gap, gap bo'laklari haqidagi bilimini boyitish, ega va uning ifodalanishi, gapdagi o'rni haqida tushuncha berish.

**Tarbiyaviy:** Dars jarayonida xalq maqollaridan foydalanish orqali ularga axloqiy tarbiya berish, muomala madaniyatini shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi:** Ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, mustaqil fikrlashga, ijodiy ishlashga o'rgatish.

**Dars uslubi:** Kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, musobaqa .

**Dars jihozi:** Og'zaki, yozma matn tuzish uchun suratlar, xalq maqollari yoritilgan kitoblar, ega haqidagi ko'rgazmali qurollar.

**Darsning shiori:** Ona tilim – jonu dilim

**Darsning borishi:**

**Tashkiliy qism:** Navbatchining hisobotini eshitish, o'quvchilarni darsning mavzusi, maqsadi, tegishli vazifalar bilan tanishish. Darsning oltin qoidalarini yodga tushirish. Ularni guruhlariga bo'lish va sardorlarni tayinlash. O'quvchilar "Bilimdon" , "Tilshunos", "Ijodkor" va "Tarjimon" guruhlariga bo'linadi. O'tgan dars mavzusi bo'yicha ishlash:

Guruhlarga nomustaqil kesim ishtirok etgan xalq maqollaridan uchtdan namuna keltirish topshiriladi. Ular quyidagicha misollar keltirib, kesimlarni aniqlab, ta'rif berishadi.

Yov qochsa, botir ko'payar. –

Yosh kelsa – ishga, qari kelsa-oshga.

To'qayga o't tushsa, ho'l-u quruq barobar yonadi.

Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar.

Har guruhdan bir nafardan o'quvchi savollarga javob beradi.

Nimaga aytiladi?

2. Qaysi gap bo'laklari ikkinchi darajali bo'laklarga kiradi?

3. Qanday hollarda ot kesim va ega orasiga tire qo'yiladi?

4. Kesimga ta'rif bering.

Guruhlar ikkitadan gap tuzishib, ega va kesimni aniqlab berishadi.

O'quvchilarni ijodiy ishlashga, mustaqil fikrlashga o'rgatish, darsga faol jalb etish maqsadida tezkor savol-javob tashkil qilinadi.

### **I guruh uchun:**

1. Maqolni davom ettiring: Mehnatdan kelsa boylik, ...

2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qachon qabul qilingan?

3. Jahonda keng tarqalayotgan milliy sport turimizni ayting?

4. O'zbekiston Respublikasi madhiyasi matnini kim yozgan?

Guruhlar ikkitadan gap tuzishib, ega va kesimni aniqlab berishadi.

O'quvchilarni ijodiy ishlashga, mustaqil fikrlashga o'rgatish, darsga faol jalb etish maqsadida tezkor savol-javob tashkil qilinadi.

### **I guruh uchun :**

1. Maqolni davom ettiring: Mehnatdan kelsa boylik ...

2. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qachon qabul qilingan?

3. Jahonda keng tarqalayotgan milliy sport turimizni ayting.

4. O'zbekiston Respublikasi madhiyasi matnini kim yozgan?

## **II guruh uchun:**

1. Navro‘z - bayrami qachon nishonlanadi?
2. O‘zbek tilida nechta harf va tovush bor?
3. Matn nimalardan tuziladi?
4. 2010 yil qanday nomlangan edi?

## **III guruh uchun:**

1. Kim 2011 yilda Osiyoning eng yaxshi futbol hakami deb baholandi?
2. Tovush qanday hosil bo‘ladi?
3. Ikki kishining o‘zaro suhbatini nima deyiladi?
4. Milliy musiqa asboblarini sanab bering.

## **IV guruh uchun:**

1. Qumloq so‘zi tub so‘zmi yoki yasama so‘zmi?
2. Iboraga misol keltiring
3. Tilning quroli nima?
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?

Shundan so‘ng guruh ishtirokchilari 139-mashqni mustaqil bajarishadi, kesimning shaxs-son qo‘shimchalari orqali egani aniqlashadi.

Bajarilgan to‘rtta shart bo‘yicha guruh a‘zolariga baho qo‘yiladi.

Yangi mavzuni o‘rganish: O‘qituvchi tegishli ko‘rgazmali vosita orqali eganing kim?, nima?, qayer? So‘roqlariga javob bo‘lishini, kesimning qo‘shimchalaridan anglashib turgan shaxs-son ma’nosini anglashtiruvchi bo‘lak ekanligini qayd etib o‘tadi. Uning , asosan, ot, olmosh, sifat, son hamda sifat-dosh orqali ifodalanishini aniq misollar yordamida tushuntiradi. Quyidagi misollar keltiriladi:

1. Bunday musobaqada kuchlilar g‘alaba qozonadi.
2. Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar.
3. Hamma Navro‘z bayrami o‘tayotgan maydonga oshiqardi.
4. Ikkovi kelgusidagi ishlar haqida uzoq suhbatlashdi.

Guruhlar mustaqil ravishda 140-mashqni bajarib, sifat va sifat-doshlar bilan ifodalangan egani aniqlashadi.



**“Kim zukko va chaqqon?” metodini amalga oshirish mumkin.**

I guruhga uchta sabzavot ekini, II guruhga uchta meva, III guruhga ikkita hayvon, IV guruhga ikkita parranda rasmini chizish, ular ishtirokida gap tuzish vazifasi topshiriladi. 5 daqiqa vaqt ajratiladi.

**“Egani top!” metodi.**

Guruhlarga 10 ta jumladan iborat matn beriladi. O‘quvchilar 3 daqiqa ichida gaplardagi egani va uning nima bilan ifodalanganini aniqlashadi.

Guruhlarga 3 ta shart bo‘yicha baho qo‘yiladi.

**Sardorlar bellashuvi.**

Sardorlar shart bo‘yicha 6-8 ta gapdan iborat matn tuzishadi, egani aniqlab, izohlab berishadi. 3 tadan topishmoqning javobini aytishadi. Xalq maqollariga to‘rttadan misol keltirishadi va ulardagi egalarni aniqlashadi. Bahor, Navro‘z bayrami haqida ikkitadan gap tuzishadi, undagi egani izohlashadi. Sardorlar baholanadi.

**Darsni yakunlash:**

Qo‘yilgan baholar umumlashtiriladi. Guruhlarning o‘rni belgilanadi va e‘lon qilinadi. G‘olib jamoa va faol o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

**Uyga vazifa:**

Gap bo‘laklarini o‘rganish. Erkin matn tuzish.

## UMUMIY XULOSA

Umumta'lim maktablarida gap bo'liklari ya'ni sintaksiz bo'limini o'rganishga qancha vaqt ajratilgan bo'lmasin, o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan har qanday mas'uliyatli ona tili o'qituvchisi darslarni dasturiy talablar asosida shakllantirsa, yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan mahorat bilan foydalana olsa, ona tili ta'limining samaradorligiga munosib hissa qo'shadi, o'quvchilarning teran bilimli, yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida kamol topishlariga erishadi.

Aniq faktik materiallardan ko'zga tashlanadiki, umumta'lim maktablarida hozirgi o'zbek adabiy tilini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari ancha mukammal ishlangan. Mazkur fanga tegishli DTS va shu asosda yaratilgan o'quv dasturlari, rejalari, darslik va qo'llanmalar ham nihoyatda puxta ishlangan bo'lib, bularning barchasi o'quvchi-talabalar bilimini mustahkamlash va rivojlantirishga, tafakkurini yuksaltirishga, ma'naviy olamini boyitishga ulkan hissa qo'shadi.

O'z navbatida esa, ona tili fani o'qituvchisining ham ta'lim mazmunini tashkil qiluvchi bu me'yoriy hujjatlardan, darslik va qo'llanmalardan, didaktik materiallardan, shu bilan bir qatorda, yangi innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishi ona tili ta'limining samaradorligini ta'minlash kafolatidir. Umumta'lim maktablarining 5-sinfida gap bo'laklarini o'rganishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoni nihoyatda keng. 5-sinflarda sintaksisning umumiy mazmun mohiyati, so'z birikmasi, gap, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari; gapning bosh (ega va kesim) va ikkinchi darajali (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol) bo'laklarini; sodda (yig'iq va yoyiq) gaplarni o'rganish ko'zda tutiladi. O'quvchilarning boshlang'ich sinflarda o'zlashtirgan sintaksis bo'limiga tegishli dastlabki ma'lumotlari mustahkamlanadi va rivojlantiriladi. 6-, 7-sinflarda esa leksikologiya va morfologiya bo'limlarini o'zlashtirishga e'tibor qaratiladi. 7-sinfda sintaksisdan faqatgina so'z birikmalari, otli va fe'lli birikmalarni o'rganish nazarda tutiladi. Bu bosqichlarda o'quvchilarga so'zning leksik va

grammatik ma'nosida keng ma'lumotlar beriladi. O'quvchilar, asosan, 8-, 9-sinflarda sintaksis bo'limiga tegishli nazariy tushunchalarni mukammal o'rganishga yo'naltirilgan. Chunki bu bo'lim tilshunoslikning eng yirik va o'z navbatida, anchayin murakkab bo'limi hisoblanadi. Shuningdek, bunda o'quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, o'quvchilar gap bo'laklariga nisbatan so'z turkumlarini oson o'zlashtiradilar. So'z turkumlarini yetarli darajada o'rgangan o'quvchigina gap bo'laklarini aniq va to'g'ri ajrata oladi; so'z birikmalarini farqlaydi; sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantira oladi, murakkab matnlar tuzadi, qo'shma gap sintaksinini talab darajasida o'zlashtiradi. Dastur va darsliklar tahlilidan ayon bo'ladiki, o'quvchilarning gap bo'laklari, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklarning mukammal tasnifi va tavsifi borasidagi nazariy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish ishlari, asosan, 5- sinflarda keng amalga oshiriladi. Bu DTS talablarida aks etgan.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari ana shu muhim va dolzarb masalalarning ijobiy yechimini hal qilishga munosib yordam beradi. Ona tilining qaysi bo'limi, qaysi mavzusi bo'lmasin, ularning deyarli barchasida ilg'or pedagogic texnologiyalarning turli usullaridan foydalanish imkoni katta.

Pedagoglik mas'uliyatini to'la anglagan, mahsuldor va sifatli darslar tashkil etish maqsadida faoliyat yuritayotgan ona tili o'qituvchisi bu usul va imkonlarni har darsida qo'llashga harakat qiladi. Umumta'lim maktablarida gap bo'laklarini o'rganishda, ayniqsa, kirish va yakunlovchi mashg'ulotlar, "Zig-zag", "Zinama-zina", "Klaster", "Aqliy hujum", "B/B/B", "FSMU", "Beshinchisi ortiqcha" kabi texnologiyalar nihoyatda mahsuldor ahamiyatga ega. Noan'anaviy dars shakllaridan mavzu uchun muvofiq'ini tanlab, xilma-xil tarqatma materiallar, jadvalli kartochkalar, o'yin-musobaqaga yo'naltirilgan texnologiyalar tayyorlash va kichik guruhlarda ishlash, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini yuzaga keltirish o'zbek tili darslarida barcha o'quvchining

mazkur fanga qiziqishlarini, mashgʻulot jarayonidagi faolligini oshiradi, ona tili taʼlimi sifat koʻrsatkichlarini yuqori pogʻonaga koʻtaradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: Oʻzbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib –intizom va shaxsiy-javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak . – Toshkent, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: Oʻzbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taʼminlash,yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. -Toshkent: Oʻzbekiston, 2017.
5. “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора – тадбирлари” Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори ПҚ-2909. // “Халқ сўзи” 2017 йил, 21апрел.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.
7. Маъруфов А., Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тилидан кўлланма, -Тошкент, 1959.
8. Фуломов А.Ғ., Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Тошкент, 1965.
9. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент: Фан,1992.

10. Нурмонов А., Ортиқова Н. Гапнинг поғонали тузилиши ва гапни бўлақларга ажратиш тамо йиллари, // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002. №3
11. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh. Gap bo‘laklari kategoriyasi va uning tashkil etuvchilari haqida // O‘zbek tili adabiyoti //, 2008. №4
12. Нурмонов А. Гап ва унинг бўлақлари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти //, 2009 йил. №2
13. Nurmonov A., Nurmonova S. Uyushiq kesim va uyushiq gap haqida // ilmiy xabarnoma, ADU, №4 2013-yil. B-70-75.
14. Абдурахмонов Ҳ., Шодмонов Э. Ўзбек тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
15. Абдурахмонов Ғ.А. Ўзбек тили грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
16. Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. -Тошкент, 1994.
17. Акрамов Ш. Ўзбек тилининг гап қурилишида тўлдирувчи ва ҳол. [WRm] валентлиги асосида: Филол. фан. номз. дис. ...автореф. – Тошкент, 1997;
18. Асқарова М., Абдурахмонов Ҳ. Ўзбек тили грамматикасининг практикуми.  
-Тошкент: Ўқитувчи, 1972.
19. Бобокалонов Р. Содда коммуникатив нутқий ҳосилаларни ўргатиш усулларри // Тил ва адабиёт таълими //, -1999. -№ 2. - Б. 42-46.
20. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар: Филол. фан. номз. дис. ...автореф. –Тошкент, 2000.
21. Жамолхонов Ҳ. А. Ҳозирги ўзбек адабий тили.- Тошкент, 2004.
22. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1995.

23. Маҳмудов Н.М. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик ассиметрия. -Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
24. Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фан. номз. дис... –Тошкент, 1996.
25. Муҳаммаджонова С. Ҳозирги ўзбек адабий тилида уюшган гаплар: Филол. фан. номз. дис. ...автореф. –Тошкент, 1999;
26. Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари. Филол.фанлари номзоди дис . ... автореф. 1997. -Тошкент.
27. Неъматов Ҳ. Лингвистик тадқиқот методологияси, методикаси ва методлари. – Бухоро: НС, 2005.
28. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. -Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
29. Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. Тошкент: Университет, 1999.
30. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Тошкент: Фан, 1992.
31. Нурмонов А.Н. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. -Тошкент: ТДПИ, 1988.
32. Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек тилидаги содда гапларда кесимнинг структура жиҳатидан типлари. Филол. фанлари номзоди...дисс. автореф. – Тошкент, 1965.
33. Усмонов С. Умумий тилшунослик. -Тошкент: Ўқитувчи, 1972.
34. Ўзбек тили грамматикаси. Т. II. Синтаксис. -Тошкент: Фан, 1976.
35. Ғуломов А.Ф. Содда гап.-Тошкент: Фан, 1955.
36. Ғуломов А.Ф., Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис.-Тошкент: Ўқитувчи, 1965.
37. Ғуломов А.Ф. Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис - Тошкент: Ўқитувчи, 1987.

### **Elektron resurslar va internet manbalari**

1. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)